

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI**

**TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI
VA KASB TA'LIMI FAKUL'TETI**

«AXBOROT-TA'LIM TEXNOLOGIYALARI» KAFEDRASI

5350400- AKT sohasida kasb ta'limi bakalavr akademik
darajasini olish uchun

“Himoyaga ruxsat”

Kafedra mudiri v.v.b.

_____ kat.o`q.Shodmonov D.A.

2018 yil “__” _____

**Mutaxassis kasb portfoliosini amaliy qo'llay olishlarini o'rgatuvchi dasturiy
vosita yaratish mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: _____ Ortiqova S.

Ilmiy rahbar: _____ Shodmonov D.

Taqrizchi: _____ Shodmonov I.

XFX maslahatchi: _____ Qurbonov E.

S A M A R Q A N D – 2018

MU I A:

Kirish.....	3
I-BOB. MUTAXASSISLAR KASB PORTFOLIOSINING MAZMUN MOHIYATI VA UNGA QUYILADIGAN TALABLAR	7
1.1. Kasb portfoliosining mazmun mohiyati.....	10
1.2. Portfolioni rasmiylashtirishga quyiladigan talablar va uni baholash.....	18
1.3. Elektron portfolio yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar tahlili va ularga quyiladigan talablar.....	21
II-BOB. O'QITUVCHINING ELEKTRON KASB PORTFOLIOSINI TUZISH AMALIYOTI	31
2.1. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi kasb portfoliosi tuzilmasi.....	31
2.2. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvchilarini kasb portfoliosi tuzishga yo'naltirish.....	34
2.3. "Elektron portfoliolar" mavzusi yuzasidan dars mashg'ulotlarini tashkillash sillabusi va loyihasi.....	37
III-BOB. MUTAXASSIS KASB PORTFOLIOSINI AMALIY QO'LLAY OLISHLARINI O'RGATUVCHI DASTURIY VOSITA TAVSIFI	60
3.1. O'rgatuvchi videoma'ruzadan foydalanish metodikasi	60
3.2. Kompyuter tizimlaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari	62
Xulosa.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70

KIRISH

Vatanimizning yorug' kelajagini belgilaydigan, uning kuch-qudratini ta'minlaydigan sohalar orasida, alohida ahamiyatga molik soha, ya'ni hozirgi texnika va texnologiyalar asrida ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini, birinchi navbatda aks ettiradigan soha, bu aynan ta'lim sohasi bo'lganligi bois, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilgan.

Fikrimizning dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'atining 2010 yil 17 apreldagi "Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini va o'quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi qarorini [5], O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4732-son Farmonini aytib o'tish mumkin[6].

Bundan tashqari, ta'lim tizimidagi islohotlarning mazmuni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ham o'z ifodasini topgan[4].

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir [8].

Ushbu hujjatlar asosini o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi biladigan va o'z kasbiy faoliyatida

ulardan samarali foydalanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tashkil etadi.

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi: Bitiruv malakaviy ishi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidagi Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari (4.3-bandi "Ta'lim jarayonini mazmunan islox qilish" va 4.10-bandi "Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish") ga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida «Elektron ta'lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012 yil 16 apreldagi PQ-1740-sonli Qarorida] qo'yilgan maqsad ("yuqori texnologik darajada o'quv jarayonini tashkil etish uchun elektron o'quv-metodik va axborot-kutubxona resurslari, axborot tizimlari shakllantirilishini ta'minlash") ga va "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil maydagi PQ-1533- sonli Qaroriga asoslanadi.

Bugungi kunga kelib ta'lim ijtimoiy hayot va davlat hayotining oddiy omili emas, balki u endilikda o'zgaruvchan sotsiumning haqiqiy subyektiga aylandi. Ta'lim ijtimoiy hayotning yangi shakllarini yuzaga keltiradi va shu orqali jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ta'lim hududlar, umuman, butun mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishning alohida mexanizmi maqomini kasb etadi, har bir kishining shaxsiy rivojlanish vositasiga aylanadi.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Ma'lum-ki, yuqori sifatli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda o'quv, ijodiy, erishgan natijalarini hisobga olmasdan, tashxis qilmay turib, shuningdek, ularni o'z-o'ziga hisobot berish hamda baholash ko'nikmalarini shakllantirmay o'quv jarayonlarni samarali boshqarish, ta'lim maqsadiga erishish bir qancha murakkabliklarni vujudga keltiradi.

Vaholanki, talaba faoliyatini, uning erishgan yutuqlarini hisobga olish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida obyektiv baholash hamda unda adekvat ravishda o'z-o'zini baholash imkoniyatini va o'z ko'rsatkichlariga tanqidiy munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish pedagog-xodimlarning eng muhim va ahamiyatli vazifalaridan biridir.

Aynan ushbu muammo dastur bo'yicha an'anaviy dars berish usulidan talabalar ehtiyojini qondiruvchi progressiv usullarga o'tishni taqozo etadi.

Bu esa o'z navbatida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari sifatini yuqori bosqichga muvaffaqiyatli amalga oshirishda pedagog-xodimlardan o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, dasturiy vositalarni hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, jumladan elektron portfoliolarini samarali qo'llashni va bo'lg'usi mutaxassislarning ish faoliyatlarida bu texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanishga o'rgatishdan iboratligini bildiradi.

Yuqoridagi bu fikrlar muammolarni hal etish chora-tadbiri ekanligidan dalolat berib va o'z navbatida bitiruv malakaviy ishini dolzarb masala sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, zamonaviy axborot kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga tadbiq etish, iqtisodiy samara berishi bilan bir qatorda, talabalarda ilmiy izlanuvchanlik xissi shakllanishiga va fikrlash doirasini kengayishiga sabab bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti: Bosh ilmiy metodik markaz axborot tizimidagi "Elektron portfolioni" to'ldirilishi jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: "Elektron portfoliolar" to'ldirilishi jarayonida talabalarni kasb portfoliosini tuzishga o'rgatishning mazmuni, zamonaviy usul va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishlari uchun mutaxassis kasb portfoliosini tuzishga o'rgatish.

Bitiruv malakaviy ish vazifalari.

- Mutaxassis kasb portfoliosiga oid xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganish;
- Portfolio yordamida ta'lim tizimini takomillashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlash;
- Portfolioni rasmiylashtirishda quyiladigan talablarni o'rganish;
- Mutaxassis kasb portfoliosining mazmun-mohiyati va unga quyiladigan talablarni va uni talabalarga o'qitishning nazariy masalalarini o'rganish;
- Portfolioni yaratishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotlarning tahlilini keltirish;
- Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi kasb portfoliosi tuzilmasini tahlil qilish;
- Talabalarga kasb portfoliosini yaratishda qiyinchilik tug'dirmaydigan dasturdan foydalanish metodikasini ishlab chiqish.
- Talabalarda ish jaroyonida foydalanish ko'nikmasini oshirish uchun zarur bo'lgan videoma'ruzalarni tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining amaliy ahamiyati. O'qituvchining elektron portfoliosini tuzish yuzasidan bayon etilgan ma'lumotlar va Auto Play dasturidan foydalanish bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalardan nafaqat talabalar, balki umumta'lim maktab o'qituvchilari, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurti pedagog-xodimlari ham o'z bilim darajalarini oshirishda axborot manbasi sifatida samarali foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob (asosiy qism), xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovadan iborat.

I-BOB. MUTAXASSISLAR KASB PORTFOLIOSINING MAZMUN

MOHIYATI VA UNGA QUYILADIGAN TALABLAR

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingach, mustaqillikka erishish jarayonlarining ilk yillaridayoq O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilindi va unda fuqarolarning bilim olish huquqi kafolatlandi [1], Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning say'i-harakatlari bilan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning milliy modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelga muvofiq mamlakatni rivojlantirishning besh tamoyili, ya'ni davlatning bosh islo hatchi ekanligi, qonunning ustuvorligi, rivojlanishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, fuqarolarning ijtimoiy himoya etilishi tamoyillariga asoslanib huquqiy demokratik jamiyat qurish sari jadal qadam tashlab kelmoqdamiz [4].

O'tgan davr mobaynida mamlakat taraqqiyotining barcha sohalaridagi, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi kabi islohatlar ta'lim tizimida ham amalga oshirib kelinmoqda. Avvalgi ta'lim tizimiga muvofiq tayyorlangan kadrlar bilan, ularning eskicha fikrlashi, dunyoqarashi bilan rivojlanishga erishib bo'lmasligi to'liq asoslab berildi. Shuningdek, Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro puxta hamkorlik va o'zaro foydali integrasiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi [8].

Bundan tashqari, amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi asoslandi.

Ta'lim tizimini isloh qilish, ta'limda keskin o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida 1992 yilda «Ta'lim to'g'risida» gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda belgilangan maqsad va vazifalar izchillik bilan amalga oshira boshlandi va ma'lum darajadagi ishlar bajarildi.

1997 yilga kelib ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ya'ni 1992 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish hamda mukammallashtirishga ehtiyoj sezildi. Shuning uchun 1997 yilda yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida» gi qonun hamda ushbu qonunni amalga oshirish uchun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi [8].

Bugungi kunga kelib ta'lim ijtimoiy hayot va davlat hayotining oddiy omili emas, balki u endilikda o'zgaruvchan sosiumning haqiqiy subyektiga aylandi.

Hammamizga ma'lum-ki, ta'lim ijtimoiy hayotning yangi shakllarini yuzaga keltiradi va shu orqali jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ta'lim xududlar, umuman, butun mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishning alohida mexanizmi maqomini kasb etadi, har bir kishining shaxsiy rivojlanish vositasiga aylanadi.

Ta'lim jarayonining faol obyekti ham, subyekti ham talaba hisoblanadi. Uning, o'quv-bilish jarayonining barcha bosqichlarida o'zini erkin, mustaqil va eng muhimi teng huquqli ishtirokchi sifatida his qilishi, zarur bilim va ko'nikmalarni ongli o'zlashtirishi, olgan bilimlarini amaliyotda samarali qo'llashi, o'z-o'zini adekvat baholashi, nazorat qilishi, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi va mustahkamlashi ko'p jihatdan pedagog-xodimlarga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi zamon yoshlarining o'ta qiziquvchan, izlanuvchan va talabchan ekanliklarini inobatga olgan holda, bugungi kun pedagogi va psixologidan davr bilan hamnafas bo'lishni, o'zining samarali faoliyatini tashkil qilishda o'quv, ilmiy hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni to'g'ri rejalashtirishni va amalga oshirishni, kasbiy pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishni, o'zgarib boruvchi zamonaviy talablarga tezkor ravishda moslashib borishni, o'z-o'zini tanqidiy baholashni, o'z ustida tinmay ishlashni, bilim berishning yangi metodlarini topishni, zamonaviy axborot kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanishni, yoshlarni kasbga yo'naltirishning innovasion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishni, shuningdek, *mutaxassislar kasb portfoliosini yaratishni* talab qilmoqda.

Chunonchi, pedagog kadrlarning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi raqobatbardoshligi uning ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyati, o'zgaruvchan hamda oshib borayotgan kasbiy talablarga moslasha olishiga bog'liq.

Aytib o'tish joiz, o'qituvchilarning bu ko'lamdagi ishlardan pedagogik jarayonda samarali foydalanishi talaba-yoshlarda o'zlari tanlagan kasblariga bo'lgan qiziqishlarini orttiribgina qolmay, balki shaxsiy hayotida o'zining munosib o'rnini egallashiga, ishonchini ortishiga asos bo'ladi.

Ta'lim tizimida "Informatika" fanini o'qitish sifatini yaxshilash va takomillashtirish bo'yicha xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlari hamda respublikamiz olimlari tomonidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan. Jumladan, ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni qo'llash va uning ilmiy asoslari bo'yicha N.N.Azizxo'jayeva, V.P.Bespalko, L.V.Golish, R.X.Jo'rayev, J.G'.Yo'ldoshev, M.Tojiyev, O'.Q.Tolipov, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishning pedagogik va psixologik jihatlari bo'yicha Ye.V.Kuznesov, S.V.Krapivka, V.V.Konovalenko Ye.I.Mashbis, V.L.Tedeyev, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida "Informatika" fanining mazmuni va uni o'qitish usullari bo'yicha A.P.Yershov, V.G.Jitomirskiy, M.P.Lapchik, V.M.Monaxov, respublikamizda esa A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, T.Azlarov, D.B.Abdurahimov, R.Boqiyev, F.Zokirova, I.Isoqov, M.E.Mamarajabov, A.Siddiqov, D.Esonboyeva, U.Yuldashev, S.I.Qulmamatov, A.Hayitov va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Jumladan, turli xil o'quv predmetlari o'qituvchilarini tayyorlash, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish, o'quvchilarni shaxs sifatida kamolotga yetkazish, ularni kasbga yo'naltirish muammolari bilan A.A.Abduqodirov, O.A.Abduquddusov, U.I.Inoyatov, Ye.S.Polat, X.F.Rashidov, J.A.Hamidov va boshqalar olib borgan tadqiqotlarni keltirish mumkin.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitish texnologiyasining istiqboli, rivojlanish bosqichlari va uning o'quv ta'minotini

yaratish masalalari A.A.Abduqodirov, M.Aripov, A.A.Andreyev, K.Ye.Arkipov, Ye.S.Polat, S.I.Raxmonqulova, D.Sayfurov, N.Tayloqov va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, virtual stend yaratish va ularni o'quv jarayoniga qo'llash masalalari S.S.G'ulomov, A.X.Abdullayevlarning tadqiqotlarida, elektron o'qitish vositalarini yaratish va ulardan foydalanish muammolari L.X.Zayniddinova, Q.T.Olimov, A.G'.Hayitov va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Ammo, yoshlarni kasbga yo'naltirishda elektron portfoliolarning ahamiyati, kasbga yo'llashning "Klaster" texnologiyasi, mutaxassislar kasb portfelini tuzish metodikasi to'g'risida ma'lumotlar juda kam yoritilgan. Bu kabi muammolarni bartaraf etish yo'llarini topishga harakat qilamiz.

1.1. Kasb portfoliosining mazmun mohiyati va uni shakllantirish

Ma'lumki, mutaxassis kadrlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi ko'p hollarda uning axborot-kommunikatsiya va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyati, o'zgaruvchan mehnat sharoitiga moslasha olishiga bog'liq. Ushbu holatlarni e'tiborga olishda o'qituvchi portfoliosi ham muhim ahamiyat kasb etishini tan olish lozimdir. Shu o'rinda "portfolio" tushunchasi qayerdan paydo bo'ldi? Bu hayotiy zaruratmi? degan savollarga javob berishimiz kerak bo'ladi.

"Portfolio" tushunchasi XV-XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, uyg'onish davrida arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatleri haqida taassurot hosil qilgan. 1970 yillarda esa ommalashib, mazmun jihatdan bizni qiziqtirayotgan "portfolio" termini rassomlar, arxitektorlar va reklama biznesi sohasi vakillari orasida paydo bo'ldi. U fotomateriallar kolleksiyasi, rezyume va muallifning eng yaxshi natijalari to'plamini anglatgan. Bunday portfolioning maqsadi uning egasi erishgan yutuqlarni reklama ko'rinishida namoyish etish, bu esa o'z navbatida portfolio egasi imkoniyatlari va o'z ishining qanchalik ustasi ekanligi to'g'risida xulosa qilish imkonini bergan[13].

Portfolioni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQShda paydo bo'ldi. AQSh va Kanadadan so'ng, portfolio g'oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g'oya Rossiyada keng tarqaldi va hozirgi kunda bu g'oya O'zbekistonda ham keng yoyilmoqda. "Portfolio" so'zi italyanchadan tarjima qilinganda, "qimmatli qog'ozlar portfeli", "hujjatlar yig'ma jildi", "mutaxassis yig'ma jildi" degan ma'nolarni, inglizchadan tarjima qilinganda esa "muhim ishlar yoki hujjatlar jildi", fransuzchadan tarjima qilinganda - "bayon qilmoq, ifoda etmoq, tashimoq" degan ma'nolarni anglatadi.

Portfolio – bu hujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to'plamidan iborat.

Ma'lumki, hozirgi zamon lug'atida portfolio so'zi – ma'lum bir vaqt oralig'ida shaxs erishgan yutuqlarni yig'ish, belgilab qo'yish va baholash usuli sifatida tushuntiriladi. Portfolioning asosiy mohiyati – shaxsning nimaga qodir ekanligini ko'rsatish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mutaxassis kadrlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi ko'p jihatdan shaxsning erishgan yutuqlariga bog'liq ekan. Bunda esa o'z navbatida elektron portfolio muhim ahamiyat kasb etar ekan[14].

Yigirma yillar oldin portfolio qog'ozda yaratilgan bo'lib, u hujjatlar joylangan yig'ma jild ko'rinishida bo'lar edi (1.1-rasm), elektron shaklda esa – magnit tashuvchilardagi fayllar ko'rinishida bo'ladi.



1.1-rasm. Hujjatlar joylangan yig'ma jild ko'rinishi

Portfolioning elektron varianti elektron taqdimot yoki shaxsiy sayt (online-portfolio) shaklida ham bo'lishi mumkin. Birinchi shakl ko'proq ko'rgazmali bo'ladigan bo'lsa, ikkinchisi esa axborotlilik xarakterga ega bo'ladi.

Elektron portfolio - shaxsning tadqiqotchilik faoliyati boshlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu shaxs qaysidir bir sohaning mutaxassisi deb qaraylik, masalan: ingliz tili fani o'qituvchisi. Ingliz tili bo'yicha mutaxassis. Keyingi o'rinlarda mutaxassis deb yuritamiz.

Mutaxassis kasb portfoliosi – mutaxassisning ijodiy yutuqlarini belgilash, to'plash va baholash usulidir. Mazkur portfolio mutaxassisning ish faoliyatini reglamentlovchi hujjatlar to'plami bo'lib, unga o'z faoliyatiga baho berib borish imkonini beradi.

Portfolio mutaxassisning turli xil faoliyatda (o'quv, ijodiy, metodik, ilmiy-tadqiqot) erishgan natijalarini hisobga olish imkonini beradi.

Portfolioning asosiy maqsadi – mutaxassisning o'z bilimini oshirib borish, faoliyati tavsifi to'g'risida hisobot taqdim etish, mutaxassisning ijodiy va kasbiy ulg'ayishini kuzatish hamda unda refleksiya (o'z-o'zini baholash) ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.


Portfolioning asosiy vazifalari:

-  analitik - mutaxassis ishini tahlil etadi va umumlashtiradi;
-  jamlashlik - mutaxassis (jumladan, informatika o'qituvchisi)ning yutuqlarini namoyish etadi (yorliqlar, diplomlar, guvohnomalar, sertifikatlar va h.k.) va bajarilgan ijodiy ishlar ko'lamini ochib beradi (loyihalar, ilmiy tadqiqot ishlari, tadbirlar, bibliografik mahsulotlar va h.k.);
-  modellik - kasbiy rivojlanish dinamikasini, ish uslubini tasvirlaydi, ish faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi;
-  rivojlantirishlik - uzluksiz ravishda o'z bilimini oshirishni ta'minlaydi;
-  motivlilik - ish faoliyati natijalarini rag'batlantiradi;
-  tavsiyaviylik - shaxs ishini o'zgartirganda yangi ish joyiga tanishtiradi.

Portfolio bu, birinchi navbatda, mutaxassisning o'z imkoniyatlarni namoyish qilish uchun mo'ljallangan ishlar to'plami bo'lib, uning asosiy mazmuni -

mutaxassisga barcha imkoniyatlardan foydalanish, uning kasbiy va aqliy o'sishga ko'maklashishga xizmat qiladi.

Portfolioning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ularni quyidagicha turlarga ajratish mumkin (1.2-rasm):



1.2-rasm. Portfolioning turlari

Birinchi tur - mutaxassisning erishgan natijalari portfoliosi. U uch bo'limdan tashkil topadi (1.3-rasm):

1. "Hujjatlar".
 2. "Bajarilgan ishlar".
- "Bajarilgan ishlar to'g'risida fikrlar".

Hujjatlar bo'limi - o'qishdagi va ish jarayonidagi shaxsiy yutuqlar kiradi (faxriy yorliq, diplom, sertifikat, guvohnomalar). Bu mutaxassisning erishgan natijalariga baho berish imkoniyatini beradi.

Ishlar bo'limi - bu mutaxassisning ijodiy, tadqiqot va loyiha ishlari to'plami. Unda mutaxassisning o'quv va ijodiy faoliyati yo'nalishlari ifodalanadi.

Bajarilgan ishlar to'g'risida fikrlar bo'limi - bunda mutaxassisning turli faoliyatiga bo'lgan munosabatining yozma tahlili (test xulosalari, resenziyalar, rezyume va boshqalar) yig'ib boriladi.



1.3-rasm. Mutaxassisning erishgan natijalari portfoliosi bo'limlari

Portfolioning ikkinchi turi - refleksiv portfilio mutaxassisning kasbiy rivojlanish dinamikasini o'zida jamlaydi. Unda mutaxassisning o'z ishiga bergan bahosi va ish faoliyati natijalari, jarayoni va maqsadlari tahlillari o'rin oladi. O'z ish faoliyatiga baho berish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kuzatish kundaliklarni olib borish samarali vosita hisoblanadi.

Portfolioning uchinchi turi - muammolar portfoliosidir. Unda ma'lum bir muammoni yechish maqsadida to'plangan ma'lumotlar, muammoni yechish jarayoni va natijalari yig'ib boriladi. Portfolioning bu turi mutaxassisning tahlil – sintez - baho berish darajasini anglatadi. Bunday portfolioda ma'lumotlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yig'ib borish tavsiya etiladi:

-  muammoni o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxati;
-  kichik mavzular, muammo doirasi, tadqiqot rejasi;
-  muhokamadagi nuqtai nazarlar;
-  sitatalar, aforizmlar;
-  boshqa fanlar doirasiga integrasiya;
-  tadqiqot natijalari asosida xulosalar;
-  tadqiqot usullari;
-  bashoratlar va istiqbol.

Bunday portfoliolarga material yig'ish va uni tizimga keltirish mutaxassisga nafaqat ishni yetarli darajada bajarishga imkoniyat beradi, balki ularning qiziqishlarini ilmiy darajagacha ko'taradi.

Portfolioning to'rtinchi turi – tematik portfolio bo'lib, u biron bir katta mavzuni o'rganish jarayonida yaratiladi. Bunday portfolioda asosan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan olingan ma'lumotlar, qo'shimcha manbalar, mavzuga oid muammoli vaziyatlar yaratish uchun to'plangan ma'lumotlar o'rin oladi.

Portfolioning beshinchi turi - kasb portfoliosi bo'lib, uning birinchi qismida mamlakatimizda mavjud bo'lgan barcha kasblar to'g'risida ma'lumotlar jamlanadi.



1.4 -rasm. Taqdimotli portfolio tuzilishi

Taqdimotli portfolio – mutaxassisning eng yaxshi ishlari kolleksiyasi. Mazkur portfoliodan mutaxassis yangi ishga kirish yoki kasbiy tanlovlarda qatnashish vaqtida foydalanishi mumkin. Quyidagi rasmda taqdimotli portfolioning tuzilishi varianti keltirilgan (1.4-rasm)[14].

Portfolioning yana bir modeli **majmualiy portfolio** bo'lib, u yetti bo'limdan iborat va ularni yanada yiriklashtirish yoki maydalash imkoniyati mavjud (1.5-rasm).



1.5-rasm. Majmualiy portfolio tuzilishi.

1. **“Титул varag’i”** bo’limida quyidagi ma’lumotlar ko’rsatilishi mumkin.

- yig’ma jild nomi (masalan, “ingliz tili o’qituvchisining ijodiy ishlari”);
- muallif F.I.Sh.;

- lavozimi;
- ish joyi nomi;
- manzili, ish yoki mobil telefoni, e-mail;
- portfolio tarkibi.

2. **"Vizit kartochka"** bo'limi. Ushbu bo'limni boshqacha, "Anketa ma'lumotlari", "Muallif to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar", "Personal blok", "Portfel", "Pasport" va shunga o'xshash. Mazkur bo'limda portfolio egasining shaxsiy ma'lumotlari joylashadi, bu yerda quyidagilar bo'lishi mumkin:

- muallif fotosurati;
- avtobiografiya;
- kasbiy dunyoqarash (kredo), ish faoliyati maqsadi va masalalari;
- ma'lumoti to'g'risida hujjatlar;
- umumiy ish staji;
- malaka kategoriyasi;
- jamoa faoliyatida kasbiy va shaxsiy qiziqishlari;

3. **"Ijodiy ma'lumotlar"** bo'limi (Ish materiallari, "Uslubiy kopilka (jamlanma)"). Bo'lim portfolio egasining asosiy yo'nalishi va ish faoliyatini tasvirlovchi eng yaxshi materiallar kolleksiyasini o'zida aks ettiradi. Unga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ilmiy-tadqiqot ishlari;
- dasturiy-loyiha faoliyat;
- shaxsiy ishlar;
- ommaviy ishlar (tadbirlar ssenariysi, ko'rgazma, fotografiya va o'tkazilgan tadbirlar yozilgan videokassetalar va sh.o'.);
- ma'lumotnoma-axborot faoliyat;
- kompyuter texnologiyadan foydalanish;
- reklama faoliyati.

4. **"Ta'limiy kollektor"** (Kasbiy o'sish kartasi", "Ilmiy-uslubiy faoliyat", "Shaxsiy ta'limiy karta") bo'limi portfolio egasining shaxsiy rivojlanish jarayonini tasvirlab, unda quyidagilar o'z aksini topadi:

- malaka oshirganligi to'g'risidagi hujjatlar (kurslarni tuganganligi haqidagi guvohnoma);

- yakuniy attestasiya, test natijalari;

- uslubiy birlashmalardagi ishlar;

- ta'limiy tadbirlarda ishtiroki (seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari va hokazo.);

- kasbiy va ijodiy konkurslarda ishtiroki;

- OAVda chop etilgan materiallar va chiqishlar;

- tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish bo'yicha ishlar (axborot xatlari, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish).

5. **“Shaxsiy yutuqlar banki” bo'limi** ("Hujjatlar portfoliosi", "Mening yutuqlarim") portfolio muallifining kasbiy darajasini oshirish maqsadida erishgan yutuqlarining hujjatlari jamlanib, ular muallifning rag'batlantirish va mukofotlanishdagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi. Bu yerda quyidagilarni joylashtirish mumkin:

- ilmiy va faxriy unvon va darajalar mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar;

- grantlar, sertifikatlar, guvohnomalar;

- faxriy yorliqlar;

- tashakkurnomalar;

- turli tanlovlar diplomlari;

- muallif xoxishiga ko'ra boshqa yorliqlar.

6. **“Taqrizlar portfeli” bo'limiga** quyidagilarni kiritish mumkin:

- ish faoliyati haqida taqrizlar (hamkasblar, o'quvchilar, shogirdlar, turli darajadagi rahbarlar);

- ish faoliyati natijalarini baholash;

- mualliflik materiallarga taqrizlar, xulosa matnlari;

- tavsiya xatlari;

- portfolio muallifi haqida maqolalar.

7. **“Muallifning o'z-o'zini baholash” bo'limida** portfolio muallifining o'z kasbiy tajribasini integrasiyalash va ish faoliyatini rivojlantirishining optimal

yo'llarini izlashi bo'yicha fikr-mulohazalari keltiriladi. Ushbu bo'limda quyidagilar bo'lishi mumkin:

- muallifning o'z ish faoliyati sohasi bo'yicha fikr-mulohazalari;
- ish faoliyati tahlili;
- shaxsiy faoliyatni korrektsiyalash;
- kasbiy rivojlanish strategiyasi.

Kasblar katalogi - mamlakatimizda mavjud bo'lgan 240 dan ortiq kasblar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar va kasblarning tavsifi, turlari bo'yicha tavsiyalar keltirilgan hamda bitiruvchilarning tanlangan kasblari bo'yicha ta'limning keyingi bosqichini mustaqil ravishda tanlashlari uchun oliy ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan yo'nalishlar kasblarga mos holda batafsil yoritib berilgan to'plamdir[15].

1.2. Portfolioni rasmiylashtirishda quyiladigan talablar va uni baholash

Elektron portfolio mavzusi bo'yicha xorijiy (K. Volf, M. Vonakott, K. Vouers, D. Littl, A. Lourensen) va hamdo'stlik mamlakatlari (L.V. Barannikov, G.A. Golub, T.G. Novikova, M.A. Choshanov, L.N. Plaxina, N.D. Galskova, Ye.S. Polat, A.S. Prutchenkov, Ye.Ye. Fedotova) hamda respublikamiz professor-o'qituvchilarining (L.N. Muzaffarova, S. Koneva, O'. Tohirov) ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganish natijasida portfolioni rasmiylashtirishga, tuzishga, unda ishlashga quyiladigan talablar aniqlandi.

Portfolioni rasmiylashtirishda quyidagi talablar inobatga olinishi lozim:

- ✚ o'z ish faoliyati monitoringining tizimliliigi va doimiyliigi;
- ✚ materiallarning tuzilmaviyliigi, barcha yozma tahlillarning mantiqiyliigi va mahalliyliigi;
- ✚ rasmiylashtirishning tartibliigi va estetikliigi;
- ✚ yaxlitliigi, taqdim etilgan materiallarning mavzuvii tugallanganliigi;
- ✚ prezentasiyaning ko'rgazmaliliigi va asoslanganliigi.

Portfolioni tuzishga yondoshuv mutaxassisning individual xususiyatidan kelib chiqib turlicha bo'lish mumkin. Ammo asosiysi mutaxassis o'z ishini, yutuqlarini

tahlil etishi, o'z imkoniyatlarini obyektiv baholashi va ish faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga olish yo'llarini ko'ra bilishi hamda yanada yuqori natijalarga erisha olishdir.

Portfolio ustida ishlash quyidagicha tashkil etilishi lozim:

- ✓ Trener o'rganiladigan mavzu nomini va nazorat qilish (baholash) shaklini aytadi;
- ✓ Mashg'ulot bo'yicha ishtirokchilarga aniq vazifa topshiriladi;
- ✓ Ishtirokchilar kichik guruhlarda ish bajarishadi;
- ✓ Kichik guruhlarining ishlarining natijalari yig'iladi.
- ✓ Ushbu mavzu bo'yicha ishtirokchilar tomonidan qilingan ishlar natijasida yig'ilgan portfoliosi himoya qilinadi.

Portfolioni tuzish tamoyillari quyidagilarga asoslanishi lozim :

- tizimlilik va ishonchlilik;
- ochiqlik;
- shaffoflik;
- oddiylilik;
- murojaatlilik;
- tasavvurning to'raligi.

Portfolioni baholash shakllari quyidagi talablar asosida belgilanadi:

- Faqat portfolio ustida ishlash jarayoni va xarakteri baholanadi;
- Portfolioning ma'lum qismlari berilgan mezon bo'yicha baholanadi;
- Portfolioning barcha bo'limlari baholanadi;
- Na faqat portfolioning o'zi, balki taqdim qilish uchun sifati ham baholanadi[16].

Baholash. Bahoning ko'rsatkichlarini ishtirokchining o'zi belgilaydi. Portfolioni ishtirokchi ochiq himoya qilganidan keyin, uning yakunlari trener bilan muhokama qilinadi. Eng muhimi ishtirokchining ishi tahlili trener tomonidan qat'iylik va mulohazalarsiz baholanmasligi kerak.

Baholash usullaridan biri "Natija" modeli bo'lib unda quyidagilar aniqlanadi:

- ✚ Portfolioning qiziqarli momentlari. Asosan nima muhim ?

✚ Barchasidan a'lo darajada (to'laroq, asosliroq, chuqur) yoritilgan mavzular.

✚ Portfolioni baholash.

✚ Portfolio bo'yicha asosiy xulosa.

Portfolioni baholashning yana bir usuli quyidagi jadval ko'rinishida bo'lishi mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadval

№	Baholash Me'zonlari	Portfolioning Afzalliklari	Kamchiliklari
1			
2			
3			

Shu kabi portfolio bilan ishlashdagi asosiy kamchiliklar ham mavjudligi aniqlandi. Materiallarning tahlili portfolio texnologiyasi va uning amaliyotda qo'llanishiga nisbatan salbiy ta'sir etuvchi qator kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

❖ hujjatlarni yig'ish va portfolioni rasmiylashtirishda ixtiyoriylik tamoyili buzilishi hollari mavjudligi;

❖ materiallarni xodim o'rnidan qandaydir tadbir bahonasida yig'ish (masalan, navbatdagi attestasiyaga materiallar yig'ish);

❖ yig'ilgan barcha hujjat va materiallarning portfolioga saralanmasdan kiritilishi;

❖ portfolio g'oyasining boshqa an'anaviy sxemalar bilan almashinishi (ma'muriyat yoki uslubiy kengash tavsifnomasi bilan, kasbiy sinov daftarchasi bilan va hokazo);

❖ tashqi rasmiylashtirishga haddan tashqari talabning kuchliligi va hokazo.

1.3. Elektron portfolio yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar tahlili va ularga quyiladigan talablar

Hozirgi kunda zamonaviy o'qituvchilar o'z faoliyatlarida AKT vositalari, xususan, elektron darslik va multimedia vositalaridan foydalangan holda saboq berishlari, dars jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish bilan ta'lim samaradorligini oshirishi hamda bir qator muhim afzallik jihatlariga egaligi haqida ko'plab fikr-mulohazalar yuritilmoqda. Demak-ki, bunday yangi texnologiyalar qatorida elektron portfolioni ham alohida ko'rsatish zarur[16].

Portfolioni qog'oz va elektron versiyasini yaratish mumkin. Umuman aytganda portfolioni yaratish mexanizmi juda murakkab ijodiy ish hisoblanadi. Bugungi kungacha ingliz tili o'qituvchisi (o'qituvchi kasbi bo'yicha) portfoliosini rasmiylashtirish va tashkil etish bo'yicha yagona standart yo'q. Shuning uchun uni tuzishda har bir mutaxassis imkoniyatidan kelib chiqib o'zicha yondashadi. Eng muhimi mutaxassis o'z ish faoliyatini tahlil etishi, yutuqlarini tizimlashtirish va umumlashtirishi, imkoniyatlarini xolisona baholashi, qiyinchiliklarni yengish hamda yanada yuqori cho'qqilarga chiqish yo'llarini ko'ra bilishidir.

Elektron portfolioni yaratishni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim, bunda:

- yaratishning maqsadi va motivini aniqlash;
- tuzilishini ishlab chiqish;
- materiallarni yig'ish;
- hajmini shakllantirish;
- eng maqbul dasturiy vositalarni tanlash;
- rasmiylashtirish;
- taqdimot qilish;
- materiallarni baholash zaruriy hisoblanadi.

Yuqorigi paragrafda (1.1 - bandda) ta'kidlaganimizdek, yigirma yil oldin portfolio faqatgina qog'oz yig'ma-jild variantida bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda unga kamida ikki variant qo'shildi. Bular, elektron portfolio va elektron on-lineye portfoliolardir.

Elektron portfolioning o'ziga xos xususiyatlari:

- birmuncha mobil va egiluvchan (materiallar tuzilishi va mazmuniga juda tez o'zgartirishlar kiritish imkoni) hisoblanadi;
- badiiy bezalishida juda ko'p imkoniyatlarning mavjudligi (kompyuter grafikasi paketlari, animasion lavhalar yaratish dasturlari va Microsoft Office dasturlari);
- kompyuterda ishni keng ko'lamda rasmiylashtirishni ta'minlaydi;
- elektron portfolio tarkibiga, muqobil nuqtai nazar sifatida Internet materiallariga murojaatni kiritish imkoni bor.

Elektron portfolio Internetga joylashtirilishi va tarmoq orqali ingliz tili o'qituvchilari bir-birlarining yutuqlaridan xabardor bo'lib turishi mumkin.

Hozirgi kunda elektron portfoliosi bo'lishini istamagan pedagog bo'lmasa kerak. Har bir elektron portfolio yaratishga qiziquvchi inson, avalambor, portfolio yaratishda murakkablik tug'dirmaydigan, qulay interfeysli dasturiy vositani tanlaydi[17].

Dasturiy vosita tanlangandan so'ng, elektron portfolio uchun zaruriy materiallarni yig'ib oladi. Shu kabi, o'z faoliyati davomida bajargan ijodiy ishlaridan namunalarni (didaktik materiallar): animasion lavhalar, multimediali mahsulotlarni portfolioga joylashtirishga harakat qiladi.

«Didaktik» deganda, pedagogika kursidan bizga ma'lum bo'lgan “didaktika, ya'ni grekcha «didaktos» so'zidan olingan bo'lib ta'lim bermoq yoki ta'lim nazariyasi” [13] degan ma'noni anglatishini esga olishning o'zi kifoya. Didaktik materiallarni, didaktik vosita sifatida qaraydigan bo'lsak, ular o'quv jarayonining asosiy tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi [14].

Eslatib o'tish joiz, yuqorida ta'kidlangan ijodiy ishlar “Elektron portfolio” mazmunini dasturiy - metodik majmua bilan to'ldirishda muhim o'rinni egallaydi.

Bundan tashqari, “Elektron portfolio” mazmunini dasturiy - metodik majmua bilan to'ldirishda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etishning muhim yo'nalishlaridan biri o'qitishda kompyuter vositalari:

elektron o'quv qo'llanmalari; kompyuterli test topshiriqlari; multimediali taqdimot va ta'limiy dasturlardan foydalanish hisoblanadi.

«Elektron portfolio»ning eng muhim qismi bo'lgan kompyuterda amalga oshiriladigan ta'limiy vositalarga, ta'lim jarayonini tashkil etishda, fanlarning (psixologiya, pedagogika, informatika va boshqa) so'nggi yutuqlari asosida qurilgan, pedagog kasbiy faoliyati funksiyasining bir qismini amalga oshiruvchi va talabalar bilimlari mazmun-mohiyatini anglash faoliyatlarini interaktiv boshqaruvchi asosiy didaktik talablarga javob beradigan o'quv (ta'limiy) dasturlar kiradi.

Agar pedagog AKT sohasida mutaxassis bo'lsa qaysi dasturiy vositadan qay tarzda foydalanish zarurligini albatta biladi. Bu sohada mutaxassis bo'lmasa, u holda o'z sohasiga doir multimediali mahsulotlarni yaratish va joylashtirish uchun mutaxassislarga murojaat qiladi.

Elektron o'quv qo'llanmalar, kompyuterli test topshiriqlari, multimediali taqdimotlar instrumental va amaliy dasturiy paketlar yordamida yaratiladi.

Demak, elektron portfolio yaratishda nafaqat portfolio yaratishga mo'ljallangan dasturiy vositalar, balki qo'shimcha didaktik materiallar yaratishga mo'ljallangan dasturiy vositalar to'g'risida ham bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish lozim ekan.

Tadqiqot mobaynida elektron portfolio va didaktik materiallar yaratishga mo'ljallangan dasturlarni o'rganib, tahlil qilib chiqdik. Bu esa o'z navbatida, ularni quyidagi ikkita katta guruhga ajratishga asos bo'ldi.

1. Pedagoglardan elektron portfolio va didaktik vositalarni yaratishda juda katta mehnat va tayyorgarlik talab etadigan dasturlar. Bunda pedagoglarning quyida keltirilgan dasturlarda ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari shakllangan bo'lishi lozim. Bular:

 Elektron portfolio yaratishga mo'ljallangan dasturlar Microsoft Front-Page (HTML-Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Dreamweaver va Joomla, Drupal, DataLife kontentni boshqarish tizimlari;

✚ Grafik va rasmi didaktik materiallar yaratishga mo'ljallangan dasturlar Corel Draw, Corel Xara, Corel Photo Paint, Adobe Photo Shop, Adobe Illustrator;

✚ Dinamik illyustrasiyalı didaktik materiallar yaratishga mo'ljallangan dasturlar Disreet 3D Studio MAX, Alais Wave Front, Maya, Light Wave, SoftImage 3D, Adobe Image Ready, Gif Animator, Macromedia Flash, Adobe Premier;

✚ Ovozli jarayonlarni taqdim etish va ovozni tahrir qilishga mo'ljallangan dasturlar SonicFoundry SoundForge, Wave Lab, Sound Recorder;

✚ Ma'lumotlar bazalarini yaratishga mo'ljallangan dasturlar Microsoft Excel, Microsoft Access.

2. Pedagoglardan elektron portfolio va didaktik vositalarni yaratishda maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydigan dasturlar. Bularga quyidagi dasturlarni kiritish mumkin:

- “eCourse Master” interaktiv muhiti.
- “Info Trans Editor” elektron kitoblar konstruktori.
- “TurboSite” - sayt yaratish konstruktori.
- “Hot Potatoes” - interaktiv mashqlar yaratish dasturi.
- “iSpring Suite” dasturi – interaktiv testlar, kitoblar, tez-tez uchraydigan savollar, vaqt shkalasi yaratishga mo'ljallangan.

Yuqorida qayd etilgan dasturlardan ba'zilari to'g'risida qisqacha ma'lumot beramiz.

1. Pedagoglardan elektron portfolio va didaktik vositalarni yaratishda juda katta mehnat va tayyorgarlik talab etadigan dasturlar tasnifi:

CMS (Joomla)

Ko'pincha mutaxassisning elektron kasb portfoliosini yaratishda Kontentlarni boshqarish tizimi (CMS) ishlatiladi. CMS - bu kompyuter dasturiy ta'minoti bo'lib, hujjat va kontentlarni hamkorlikda yaratishni tizimlashtirish va soddalashtirish uchun mo'ljallangan. CMS - veb ilova bo'lib, veb-sayt va uning tarkibini boshqarish uchun xizmat qiladi.

Joomla esa o'z navbatida - PHP tilida yozilgan mazmunni boshqarish tizimi va u MySQL ma'lumotlar baza tarkibini saqlovchi sifatida ishlatiladi (1.6 - rasm). Joomla - GNU/GPL lisenziya bilan hamma kirishi mumkin bo'lgan bepul dasturiy ta'minot bo'lib, uni boshqarish va o'rnatish sodda va ishonchli (yodda tutish mutaxassislar uchun).



1.6-rasm. Joomla dasturining boshqaruv paneli

Joomla ning asosiy o'ziga xos xususiyati shundaki, cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lgan holda sodda boshqariladi va saytlarni yaratishda egiluvchanlik xususiyatiga ega.

Joomla so'zining Suaxili tilidagi tarjimasi «Jumla» ya'ni "birgalikda" yoki "bir butun" ma'nolarini berib, tizimni rivojlantirishda ishlab chiqaruvchilar va jamoa yondoshuvini tasvirlaydi.

Joomla imkoniyatlari:

- ❖ ma'lumotlar bazasi va sayt komponentlarini to'liq boshqarish;
- ❖ yangiliklar, tovar yoki servis bo'limlari boshqarish va tahrirlash uchun to'liq ochiq;
- ❖ bo'lim mavzulari mualliflar hamkorligida kengaytirilishi mumkin;
- ❖ bloklar joylashuvini to'liq sozlash imkoniyati, hattoki menyuning chap, o'ng va markaziy bloklarini ham;
- ❖ tasvirni brauzer bilan o'z bibliotekasiga saytda foydalanish uchun yuklash;

❖ forumlar, so'rovlarning dinamik moduli, ovoz berish natijalarini ko'rsatish bilan;

❖ Windows, Linux, FreeBSD, MacOSX server, Solaris tizimlar bilan mos kelishishi.

Joomla ni elektron portfoliongizning har qanday jihatini boshqarishda sodda ishlatish mumkin.

Shu o'rinda aytib o'tish joiz, Joomla ni o'rnatish uchun maxsus dasturiy vosita zarur bo'ladi. Bular: Denwer, XAMPP kabi dasturlardir. Ular kompyuterga o'rnatilgandan so'ng Joomla dasturini o'rnatib ishga tushirish mumkin.


Elektron portfolio yaratish uchun esa, PHP tilida sahifalar yaratish malakasiga ega bo'lish talab etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, AKT sohasida mutaxassis bo'lmaganlar uchun Joomla da ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllangan bo'lishi lozim.

Microsoft FrontPage Express

Microsoft FrontPage Express – eng oddiy va hammabop gipermatn tahrirlagichi bo'lib, u **Windows** tarkibiga kiradi va shuning uchun ham istalgan foydalanuvchi uni o'z kompyuteriga osonlik bilan o'rnatib olishi mumkin. Agar bu dastur uchun belgi (yarlyk) hosil qilinmagan bo'lsa, u holda **fpexpress.exe** faylini topib, belgi (yarlyk) yoki menyu buyrug'ini hosil qilish mumkin. Ushbu gipermatn tahrirlagichi yordamida elektron portfolio yaratishni boshlash bo'sh sahifa hosil qilishdan boshlanadi. Dasturda **HTML** ning ko'pchilik elementlarini hosil qilish uchun maxsus tugmacha yoki menyu buyrug'i ko'zda tutilgan. Bu dasturda ishlash uchun ham matnni hoshiyalash tillari to'g'risida bilimga ega bo'lish kerak.

Dreamweaver

Dreamweaver - bu paket juda ko'p afzalliklarga ega: qulay interfeys, funksiyalar nastroykasi, katta loyihalarni qo'llab quvvatlash (ShockWave texnologiyalarni), FTP orqali fayllarni olish imkoniyati, SSI ni qo'llash va boshqalar. **Dreamweaver** - WYSIWYG texnologiyasi (What You See Is What You Get – nimani ko'rsang o'shani olasan) asosida ishlaydigan muharriridir.



1.7-rasm. Dreamweaver dasturi darchasi va uning ishchi sohasi.

Bu muharrir yordamida foydalanuvchi to'g'ridan-to'g'ri oddiy matn muharrirlaridek matnni kiritishi, tasvirlarni kerakli joyga joylashtirishi, formatini o'zgartirishi mumkin (1.7-rasm).

Ammo, bu dastur bilan ishlash bo'yicha ham FrontPage dasturi kabi, elektron portfolio yaratuvchisi maxsus bilimga ega bo'lishi kerak. Sababi-ki, gipermatn tahrirlagichlari yordamida tahrirlangan shablonlarni hamma brauzerlar ham tushunishmaydi. Ya'ni veb-sahifada aks etishi kerak bo'lgan va boshqa matn muharrirlarida tayyorlangan hujjat tarkibida sarlavha, paragraflar, ro'yxatlar, turli shaklda formatlangan matn bo'ladi.

Bu matnni ba'zi veb brauzer tushunmaydi, chunki u hali hoshiyalash tillari yordamida hoshiyalanmagan va shu sababli u veb brauzerda bo'sh joy kabi aks etadi. Bu matnni veb brauzer to'g'ri tasvirlashi uchun unga mos teglarni qo'yib chiqish kerak. Bu jarayon ham o'z navbatida HTML – matnni hoshiyalash tili yordamida amalga oshiriladi.

2. Pedagoglardan elektron portfolio va didaktik vositalarni yaratishda maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydigan dasturlar tasnifi:

eCourse Master

“eCourse Master” interaktiv muhiti. Didaktik vosita (elektron o'quv qo'llanma) yaratuvchisi bunda sahifalarni loyihalashtirib, ular o'rtasida bog'lanishlarni o'rnatadi. Nazorat topshiriqlari va mashqlarni yaratadi. Didaktik

vosita yaratish xuddi bolalar uchun kompyuter bilan ishlashni eslatadi. Bundan tashqari, bu dastur yordamida, to'la ma'nodaga funksional multimedia mahsulotini yaratish mumkin. Unda pedagogning bilimi va mahorati darajasiga nisbatan moslashish ham mavjud: endi o'rganayotgan foydalanuvchi, tajribali foydalanuvchi va ekspert. Shuningdek ularda bugungi kun uchun juda muhim ahamiyat kasb etuvchi loyihalarni ishdan chiqarish va ruxsatsiz foydalanishlarga qarshi himoya vositasi ham bor.

Info Trans Editor

“Info Trans Editor” elektron kitoblar konstruktori – bu dastur elektron darsliklar yaratish, elektron kurslar, uslubiy qo'llanmalar, testlar, nazorat ishlari, mashqlar to'plamlari va elektron o'qitish uchun boshqa o'quv materiallari ishlab chiqish uchun mo'ljallangan. Dastur boshqa tayyor Microsoft Word matnlarini ham qo'llab o'z xolicha saqlash imkoniyatiga ega.

TurboSite

“TurboSite” - sayt yaratish konstruktori. Dasturdan nafaqat sayt, balki, elektron darsliklar, elektron uslubiy qo'llanmalar, jumladan elektron portfolio yaratishda foydalanish mumkin. Loyiha yaratuvchisi bu dasturning o'zida mavjud shablonlardan birini yoki Internetdan dasturga mos shablonni yuklab olib foydalanishi mumkin. Elektron portfolio yaratuvchisi sahifalarni loyihalashtirish birla, ular o'rtasida bog'lanishlarni o'rnatishi, sahifalarga didaktik vositalarni joylashtirishi mumkin. “TurboSite” dasturi sahifalar o'rtasida bog'lanishlar yaratishni 3 xil usulini taqdim etadi. Birinchisi, tayyorlanayotgan loyiha sahifalariga murojaat; ikkinchisi, mahalliy hujjatlarga murojaat; uchinchisi, WWW ning xohlagan joyidagi hujjatlarga murojaat [15].

Hot Potatoes

“Hot Potatoes” dasturi. Hot Potatoes – dasturlash tillari bo'yicha yetarli bilim, malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilarni va dasturlash sohasi mutaxassislarini jalb etuvchi, mustaqil tarzda interaktiv mashqlar yaratishga imkon beruvchi instrumental qobiq dastur hisoblanadi. Bu dastur yordamida ham matnli,

ham grafik, hamda audio- va video axborotli 10 xildagi mashqlarni turli tillarda yaratish mumkin.

Dasturning o'ziga xos jihati shundaki, yaratilgan mashqlar veb-sahifalarni standart formatida saqlanadi. Bu esa o'z navbatida, "TurboSite" dasturi yordamida ushbu veb-sahifalarga murojaat etishga imkon beradi. Chunki, loyiha formati ham veb-sahifalarni standart formatida saqlanadi [16].

Hot Potatoes dasturi yordamida yaratilgan interaktiv mashqlar o'qituvchi uchun nazorat tizimini yangi – sifat bosqichiga o'tishga, talabalar uchun esa bilimlarini muntazam ravishda mustahkamlab borishga imkon yaratadi. Butun dunyo ta'lim muassasalari turli yo'nalishdagi fanlarni o'rganish uchun Hot Potatoes dasturidan keng ko'lamda foydalanadi.

iSpring Suite

"iSpring Suite" bu Microsoft Office PowerPoint dasturi asosida elektron kurslar, testlar, interaktiv mahsulotlar yaratishga mo'ljallangan dasturlar majmuasidir [17].

"iSpring Suite" uchta kichik dasturiy mahsulotni o'z ichiga oladi: iSpring Pro; iSpring QuizMaker; iSpring Kinetiks.

➤ iSpring Pro – o'z ichiga YouTube va Flash roliklarini birlashtirgan, loyihani ishonchli himoya qilish vositalariga ega bo'lgan audio-videoli professional o'quv kurslari yaratish uchun vositadir (1.8-rasm).



1.8-rasm.

➤ iSpring QuizMaker – interaktiv test va so'rovlar ishlab chiqish uchun mo'ljallangan funktsional va qulay vosita hisoblanadi (1.9-rasm).



1.9-rasm.

➤ iSpring Kinetiks – shaxsiy 3D – kitob, interaktiv ma’lumotnoma, juda ko’p uchraydigan savollarning vaqtinchalik shkalasini va bazasini yaratish imkonini beradi (1.10-rasm).



1.10-rasm.

II-BOB. O'QITUVCHIINING ELEKTRON KASB PORTFOLIOSINI TUZISH AMALIYOTI

2.1. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi kasb portfoliosi tuzilmasi

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisi portfoliosi uning kompetentligi va raqobatbardoshligini ko'rsatuvchi kasbiy o'sish monitoringini olib borish; o'quv jarayonini yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan didaktik va uslubiy materiallar kolleksiyasi, ta'limni masofaviy qo'llab-quvvatlash vositasidir.

Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining umumkasbiy yutuqlari portfoliosi tarkibi: oldingi mutaxassislik toifasi; o'sha toifada faoliyat ko'rsatgan muddati; ma'lumoti; ilmiy daraja yoki unvoni (agar bor bo'lsa); ilmiy daraja qachon olinganligi, ilmiy tadqiqot ishi bag'ishlangan mavzu; umumiy mehnat staji; tanlovdan o'tgan lavozimdagi staji, ushbu oliy o'quv yurtidagi ish staji, malaka oshirish va qayta tayyorlovdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, mukofotlar kabi ma'lumotlardan tashkil topadi.

Jarayon portfoliosi o'qituvchining kasbiy o'sishining barcha faza va bosqichlarini o'zida aks ettirib, uning o'z ustida ishlashini, ilmiy-tadqiqot faoliyatini ko'rsatadi, ilmiy maqolalari, malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnomalarni o'z ichiga oladi, o'zining kasbiy mahorati o'sayotganligini anglashini ta'minlaydi va o'z-o'ziga hisobot berish hamda baholashning turli shakllarini hisobga oladi.

Metodik portfolio o'qituvchining uslubiy mahorati to'g'risida ma'lumot berib, u uslubiy ishlanmalar, maqolalar, mualliflik dasturlari, innovasion texnologiyalar, ma'ruzalar, ma'lumotlar, o'qitilayotgan predmet bo'yicha talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlovchi darslar uchun didaktik materiallarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda pedagog portfolioning turli modellaridan foydalanish, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisining portfoliosini quyidagi asosiy turlarga yo'naltirilishi mumkinligi to'g'risida tavsiyalarni berishga imkon yaratdi [18].

1. *O'qituvchi haqida ma'lumotlar*: portfolioning ushbu bo'limida: familiya, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili; ma'lumoti (ta'lim muassasasi nomi, bitirgan yili, mutaxassisligi va diplom bo'yicha ixtisosligi); mehnat va pedagogik tajribasi, ushbu ta'lim muassasasidagi ish tajribasi; malaka oshirish (kurslarda tinglangan tizim nomi, yili, oyi, kurslar problematikasi); kasbiy rivojlanish individual rejas, unda belgilangan maqsadlar va o'z kasbiy o'sishi vazifalari, egallashi kerak bo'lgan malakalar, yaqin 2-3 yil mobaynida o'tishni maqsad qilib qo'ygan treninglari va kurslari (o'qituvchining kasbiy rivojlanish maqsadlari va vazifalari o'qitiladigan fani kasbiy standartlari, talabalarning o'zlashtirishlari, oliy ta'lim muassasasi rejasiga mos bo'lishi kerak); ilmiy va faxriy unvon hamda darajalari mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari; hukumat mukofotlari, yorliqlari, minnatdorchilik nomalari; turli tanlovlar diplomlari; attestasiyadan o'tuvchining ixtiyori bo'yicha boshqa hujjatlar.

2. *“Pedagogik faoliyat natijalari”* (sxemalar, grafiklar va jadvallar ko'rinishida 3 yil davomidagi o'quv fani sohasidagi yutuqlari dinamikasi, jumladan, kirish imtihonlari) - portfelining ushbu bo'limida talabalarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishlari natijalarini va pedagog o'qitadigan fanlar bo'yicha ularda shakllangan asosiy malakalarni ifoda etuvchi materiallar, quyidagilar asosida 3 yil davomidagi:

- bilimlari nazorat ko'rsatkichlari;
- talabalarning oraliq va yakuniy attestasiyalari natijalari;
- iqtidorli talabalar mavjudligi;
- bitiruvchilarning magistraturaga o'qishga kirishlari;
- talabalarning fan yo'nalishi bo'yicha magistraturaga kirishlari haqidagi ma'lumotlar;

- talabalarning tuman, shahar, mintaqaviy va respublika olimpiadalari, tanlovlarida ishtirok etishlari kabi pedagog faoliyati tahlili joylashtiriladi.

3. *“Ilmiy-metodik faoliyat”* (o'quv va tarbiyaviy ishlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish): pedagog tomonidan tanlagan ta'lim dasturlari va o'quv-metodik adabiyotlar to'plamini asoslab beruvchi materiallar; pedagog

tomonidan foydalaniladigan ta'lim texnologiyalarini asoslab beruvchi materiallar; pedagog tomonidan o'z amaliy faoliyatida qo'llaydigan ta'lim natijalarini baholash uchun u yoki bu pedagogik diagnostika vositalari berilgan materiallar; ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishi bo'yicha materiallar, rivojlanish muammolari bilan talabalarni o'qitish metodik texnologiyalari; metodik birlashmalarda ishlashi, oliy ta'lim muassasasi metodik markazi, boshqa OTMlar va boshqa muassasalar bilan hamkorligi to'g'risidagi materiallar; hisobot materiallari, kasbiy va ijodiy pedagogik tanlovlarda ishtirok etishi, seminarlar, «davra suhbatlari», master-klasslar va shu kabilarni tashkil etish va o'tkazish; ilmiy tadqiqotlar o'tkazish; mualliflik dasturlarini ishlab chiqish; doktorlik dissertatsiyasi qo'lyozmasini yozish; ijodiy hisobot, referat, hisobotlar, maqolalar tayyorlashdan iborat.

4. *“Fan bo'yicha darsdan tashqari faoliyat”*: talabalarning fan bo'yicha bajargan ijodiy ishlari, referatlari, o'quv-tadqiqotchilik ishlari, loyihalari ro'yxati; olimpiadalar, tanlovlar, musobaqalar, intellektual marafonlar va boshqalar g'oliblari ro'yxatlari; darsdan tashqari tadbirlar ssenariylari, o'tkazilgan tadbirlar fotosuratlari va videomateriallari (ko'rgazmalar, fan ekskursiyalari, tanlovlar, breyn-ringi va boshqalar); to'garaklar va fakultativlar dasturlari; boshqa materiallardan iborat.

5. *“O'quv-moddiy bazasi”* (pedagogning o'z kabinetini metodik jihozlashga qo'shgan hissasi):

- fan bo'yicha lug'atlar va boshqa axborot adabiyotlarning mavjudligi;
- ko'rgazmali qo'llanmalarining mavjudligi (maketlar, jadvallar, sxemalar, illyustrasiyalar, portretlar va boshqalar);
- didaktik materiallar, masalalar, mashqlar to'plamlari, referatlar va insholar namunalari va shu kabilarning mavjudligi;
- talabalar bilimlari sifati ko'rsatkichlari;
- texnik vositalarning mavjudligi (televizor, videomagnitofon, musiqa markazi, diaproyektor, kompyuter va ta'lim kompyuterli vositalari, audio va video qo'llanmalar);

- doimiy foydalaniladigan o'quv texnik vositalari haqidagi ma'lumotlar;
- didaktik materiallar, masalalar, mashqlar to'plamlari, referatlar va insholar namunalari va shu kabilardan, magistraturaga kirish imtihonlariga tayyorlanishi bo'yicha materiallardan foydalanish;

- pedagog ixtiyori bo'yicha boshqa hujjatlar.

6. *“Guruh rahbari sifatida pedagogning vazifalari”*: guruh talabalari o'zlashtirishlari va bilimlari sifati tahlili; guruhda talabalar tartibi saqlanib qolishi haqida ma'lumotlar; huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlar; ota-onalar bilan ishlash haqidagi ma'lumotlar; guruh rahbari soatlari va ota-onalar majlislari ishlab chiqilishidan iborat.

7. *“O'z pedagogik faoliyati natijalarini baholash”*.

8. *“Taklif va mulohazalar”*- talabalar, hamkasblari, ma'muriyat, ota-onalar baholari.

Portfolioni tayyorlash jarayonida pedagog tomonidan portfolioga kiritilgan har bir alohida material (yorliqlar, tashakkurnomalardan tashqari) sanasi qo'yilishi va imzolanishi kerak.

Portfolioni baholash. Portfolio ta'lim muassasasi ma'muriyati yoki taqdim etilishi maqsadiga qarab jamoat tashkilotlari tomonidan baholanadi. Baholashda portfolio barcha materiallari talabalar natijalariga, pedagog malakasini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatganligi nuqtai nazaridan ishlab chiqiladi.

2.2. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvchilarini kasb portfoliosi tuzishga yo'naltirish

Bo'lajak mutaxassislarda mehnatga ongli munosabatda bo'lish, ishlab chiqarishning umumiy natijalari haqida o'ylash, jamoa ishlab chiqarishini boshqarishni faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim-tarbiyaning muhim yo'nalishidir.

Ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida barcha talabalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari talab etiladi:

- ❖ kelajakda mutaxassis bo'lib yetishadigan talabalar o'z kasbiy faoliyatlari

va uning kelajagi to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lishi;

- ❖ o'qish jarayoni talabalarni ham kasbiy malaka egallashiga, ham ijtimoiy tajribaga ega bo'lishiga ko'maklashishi jumladan, ham individual, ham jamoaviy qarorlarni qabul qilishga o'rganishi;
- ❖ professional, nazariy va amaliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi;
- ❖ ko'proq bilishga da'vatlantirish, o'z kasbining malakali ustasi bo'lishga intilishini kuchaytirish, rag'batlantirish.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bizga ma'lumki, oliy ta'lim tizimi har bir o'qituvchisining oldida doimo bitta: qanday qilib berilayotgan nazariy bilimlarni kundalik amaliyotga qo'llash muammosi turadi. Aynan ushbu muammo dastur bo'yicha an'anaviy dars berish usulidan talabalar ehtiyojini qondiruvchi progressiv usullarga o'tishni taqozo etadi.

Mutaxassislar bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilari portfoliosi bilan bir qatorda talabalarning, ayniqsa pedagogik ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun o'rganayotgan fanlari bo'yicha o'quv portfoliosini tuzishlari maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlashmoqda [19].

Baholash shakli sifatida o'quv portfoliosining pedagogik falsafasi quyidagilarga imkon beradi:

- ❖ talabaning mazkur fan va mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshishi;
- ❖ miqdor va sifat baholarining integrasiyalashuvi;
- ❖ pedagog tomonidan baholashdan o'z-o'zini baholash usuliga o'tish.

Quyida biz o'quv portfoliosini tuzish masalasiga to'xtalib o'tamiz.

Portfolioda: mustaqil bajarishga berilgan topshiriqlar; reyting nazorati natijalari; yozma ijodiy ishlar; fotosuratlar; sxemalar, chizmalar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar, anketalar va ularning qayta ishlash natijalari; kelajakda portfolioni tadqiq etish maqsadining qo'yilishi va asoslanishi; ma'ruza va chiqishlarning qisqa yozma variantlari; ijodiy ishlardan namunalar; mustaqil yaratilgan didaktik materiallar va boshqalar bo'lishi mumkin. Yuqoridagilardan tashqari portfolio quyidagi ruknlarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. “Bu bizga nima beradi?” Talabalarga biror bir mavzu bo'yicha, masalan “Prezi dasturining shablonlari asosida taqdimot yaratish” mavzusi bo'yicha topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi va ulardan ushbu topshiriqlarni bajarish vazifasi topshiriladi.

2. “Maslahatlar”. Ushbu ruknda talabalardan berilgan topshiriqni to'g'ri hal etish bo'yicha maslahat, fikr, g'oyalarini yozish talab etadi.

3. “ Qachon va qayerda foydalanishim mumkin...?” ruknida talabalarga “Prezi dasturida yaratilgan taqdimotning imkoniyatlari” mavzusi bo'yicha qiziqarli ishbop o'yin tuzish topshirig'i beriladi. Talaba o'zi tuzgan ishbop o'yin topshirig'ini asoslab berishi kerak.

4. “Mavzu shiori”, “Mavzu emblemasi”, “Mavzu reklamasi” rukniga fanning biror mavzusi bo'yicha talabaning ixtirochilik ijodiy ishlaridan namunalar kiritiladi.

5. “Sitata va aforizmlar” rukni qadimiy Sharqning buyuk olimlarining tafakkur durdonalarining ingliz tiliga tarjimasi bilan to'ldiriladi.

6. “Latifa va qiziqarli voqyealar” ruknida kompyuterlar, robotlar, talabalar hayotiga taaluqli bo'lgan latifalar, dars vaqtida bo'lib o'tgan qiziqarli voqyealar yozib qo'yiladi.

7. “Mening ixtirolarim” ruknida talabalar o'zlari yaratgan o'quv filmlarini, interaktiv kitoblarni, infografik ma'lumotlarni, turli xil didaktik materiallarni yoki skrinshoti olingan va qog'ozga chop etilib skanerlangan elektron nusxalarini joylashtirib borishadi.

8. “Qiziqarli informatika” ruknida talabaga doir ommaviy axborot vositalar, adabiyotlar va internetdan olingan qiziqarli ma'lumotlarni jamlab borishi mumkin.

9. “Men sevgan saytlar” ruknida talaba o'zi tez-tez foydalanadigan saytlar katalogini tuzadi.

10. “Jo'natilmagan xat” ruknida talabalar kelgusi avlodga, nevaralariga o'zlari o'quv faoliyati davomida qatnashgan fani mashg'ulotlari haqida xatlar tashkil qiladilar

11. Talabalarga “Tadqiqot ishim mavzusi” rukni bitiruv malakaviy ishi bo’yicha tadqiqot va tajriba ishlari natijalarini yozishlari uchun zarurdir.

Bunday portfolioni tashkil etishda o’qituvchidan ushbu ishni motivlashtirish (portfolioni tuzish nima uchun kerakligi, talabaga tushunarli bo’lishi) hamda portfolioning ko’rinishi, topshirish muddati va u bilan ishlash vaqtini, ruknlarning umumiy soni, uni baholash mezonlari va usullarini aniqlab olishi talab etiladi.

Portfolioni baholashda imkoni boricha ular bilan ishlash jarayoni va tavsifi hisobga olinishi muhim. Baholash mezoni sifatida: “majburiy rukn va xulosalarning mavjudligi”, ilmiy-tadqiqot ish usullaridan foylanganligi; portfolioning loyihaviy usuli; mazmunning “shaxs bilan bog’langanligi”; rasmiylashtirish sifati; portfolioning talabaning o’ziga foydalilik darajasi tahlili” kabilarni olish mumkin.

Shunday qilib aytish mumkinki, o’quv portfoliosi amaliy qimmatga ega bo’lganligi bilan undan nazariy mashg’ulotlarni amaliyot bilan organik bog’lovchi qo’shimcha o’qitish usuli sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. U, asosan masala yechimining yagona yo’lini ishlab chiqishni taqozo etmaydi.

O’quv portfelining qimmati ko’pgina g’oyalarni rag’batlantirish va ularni amalga oshirish usullarini tanlash, tavsifi konkret o’quv vaziyati bilan aniqlanadigan qabul qilinayotgan qarorlarning turli – tumanligida o’z ifodasini topadi.

2.3 “Elektron portfoliolar” mavzusi yuzasidan dars mashg’ulotlarini tashkillash sillabusi va loyihasi

Ta’lim berish texnologiyasining modeli

Mavzu:	Elektron portfoliolar
O’quv vaqti:	2 soat
Talabalar soni:	60 nafar
O’quv mashg’uloti shakli:	Axborotli, vizual ma’ruza
Ma’ruza rejasi	1. Portfolio tushunchasi. 2. Elektron portfoliolarining turlari va ularning tarkibiy qismlari. 3. Pedagogning portfoliosi haqida tushuncha. 4. Pedagogning elektron portfoliosi tizimi. 5. Elektron portfolio bilan ishlash va uni

	shakllantirish
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarga kasbiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish uchun portfolio va uning ahamiyati, ularning turlari, afzalliklari, shuningdek, pedagog elektron portfoliosi tizimi to'g'risida ma'lumotlar va tushunchalar berish, hamda elektron portfolio bilan ishlash va uni shakllantirish yo'llarini o'rgatish.	
Pedagogik vazifalar: • Portfolio haqida ma'lumot berish; • Elektron portfolio turlari va ularning tarkibiy qismlari bilan tanishtirish; • Pedagog elektron portfoliosi tizimi haqida ma'lumot berish; • Elektron portfolio bilan ishlash va uni shakllantirish haqida tushuncha berish; • Elektron portfolio yaratishga mo'ljallangan dasturlarning tasnifini keltirish va ular yordamida portfolio yaratish yo'llarini o'rgatish.	O'quv faoliyati natijalari: • Portfolioning kelib chiqish tarixini bilishadi; • Elektron portfolio turlarini farqlay olishadi; • O'z kasbiy faoliyatining kelajagi, elektron portfoliosi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishadi; • Elektron portfolio bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi; • Elektron portfolio yaratishga mo'ljallangan eng sodda dasturlarni farqlay olishadi; • Elektron portfolio yaratishga mo'ljallangan dasturlardan foydalanish ko'nikmasi shakllanadi va mustaqil ravishda o'z elektron portfoliolarini tuzishadi.
O'qitish usullari:	Ma'ruza – vizualizasiya texnikasi, “Klaster” texnologiyasi, “VENN” diagrammasi va “Nima uchun?” grafik organayzeri
O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakli:	Frontal, jamoaviy
O'qitish vositalari:	Vizual materiallar, proyektor, ma'ruza matni, dasturiy vosita.
O'qitish sharoiti:	Texnik ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash:	Kuzatish, og'zaki nazorat, test nazorati va o'quv topshiriqlarni bajarish natijalari Turbo Sayt dasturi yordamida yaratilgan portfoliolar.

**“Elektron portfoliolar”
mavzusidagi mashg'ulotning texnologik xaritasi**


Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov	1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni	

bosqichi	belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. 2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daq)	1. Talabalar davomati va darsga tayyorgarligini tekshiradi. O'tilgan mavzuni takrorlash maqsadida tarqatma materiallardan foydalanadi. 2. Mashg'ulot mavzusini va uning rejasini e'lon qiladi. Uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi. 3. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi	Savollarga javob beradilar Eshitadilar va daftarlariga yozib oladilar Savollarga javob beradilar
2-Asosiy bosqich (60 minut)	1. Mavzu bo'yicha tayyorlangan slaydlarni namoyish qiladi. Har bir slaydni alohida izohlaydi. 2. Portfolio turlarini "Idrok xaritasi" metodi asosida bayon etadi (1-ilova). 3. Slaydlardagi ma'lumotlarning zaruriy nuqtalarini talabalarga yozdirib boradi. 4. Elektron portfoliolar yaratishga mo'ljallangan dasturiy vositalar to'g'risida ma'lumot berib, ularni VENN diagrammasi yordamida solishtiradi va umumiy xulosani bayon etadi (2-ilova). 5. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida Nima uchun? – grafik organayzerini qo'llaydi va ulardan muammoli savolga javob berishlari talab etiladi (3-ilova).	Slaydlarni ko'rib, tinglab, yozib boradilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
3-Yakuniy bosqich (10 minut)	1. Yakun chiqaradi, o'quv faoliyatining natijalarini umumlashtiradi, faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 2. Kelgusi ma'ruza mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish uchun mavzu e'lon qilinadi va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati beriladi. "Insert" texnikasidan foydalanib darsga tayyorlanib kelish topshiriladi. 3. Uyga vazifa beradi. "Baliq skeleti" sxemasi asosida "Elektron portfolioni yaratishda uchraydigan muammolarning sabablari"ni	Tinglaydilar. Topshiriqlar ni olishadi. Uyga vazifani yozib olishadi.

yoritib kelish vazifasi yuklatiladi. Darsni yakunlaydi. (4-ilova)

1-ILOVA. “IDROK XARITASI” METODI


Portfolio turlari grafikli bayon etiladi. Bu usulni qo'llash orqali talabalarning axborotlarni tizimli, tartibli va vizual o'zlashtirishiga erishiladi.



2-ILOVA. VENN DIAGRAMMASI

Elektron portfolio yaratishga mo'ljallangan dasturiy vositalar to'g'risida ma'lumotlar beriladi va tahlil qilinadi. Portfolio yaratishda foydalanuvchiga murakkablik tug'dirmaydigan, qulay interfeysli dasturiy vositani tanlash masalasi ko'rib chiqiladi. Bunda o'z navbatida talabalardan elektron portfolio yaratishda juda katta mehnat, tayyorgarlik va professionallik talab etadigan va murakkab bo'lmagan, professionallik talab etmaydigan dasturiy ta'minotni solishtirish masalasi quyiladi.

Elektron portfolio yaratish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotlar kontentlarni boshqarish tizimi (Joomla) va instrumental dasturiy vositalar solishtiriladi. Ularning umumiy jihatlari aniqlanadi, o'xshashliklari va kamchiliklari aniqlanadi. Xulosa qilinadi.



NATIJA: Instrumental dasturiy vositalar mutaxassis bo'lmaganlar uchun o'z portfoliosini yaratishda juda qulay dasturiy vosita.

3-ILOVA. "NIMA UCHUN ?" SXEMASI

"Nima uchun" sxemasi-muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.


Elektron portfoliolar to'g'risida batafsil ma'lumotlar bayon etilgandan so'ng talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida “Nima uchun?” – grafik organayzeri qo'llaniladi. Talabalardan o'qituvchi tomonidan quyilgan muammoli savolga javob berishlari talab etiladi.




4-ILOVA. “BALIQ SKELETI” SXEMASI

“Baliq skeleti” chizmasi bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Dars yakunida talabalarga uyga vazifa qilib “Elektron portfolioni yaratishda uchraydigan muammolarning sabablari”ni o'rganib “Baliq skeleti” sxemasi asosida yoritib kelish yuklatiladi.

Bu metodni qo'llash talabalarda tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.





MA'RUZA MATNI

Mavzu: Elektron portfoliolar

Reja:

1. Portfolio tushunchasi.
2. Elektron portfoliolarning turlari va ularning tarkibiy qismlari.
3. Pedagogning portfoliosi haqida tushuncha.
4. Pedagogning elektron portfoliosi tizimi.
5. Elektron portfolio bilan ishlash va uni shakllantirish

Tayanch iboralar.

Portfolio, mutaxassis kasb portfoliosi, elektron portfolio, portfel, portfolio maqsadi, portfolio vazifasi, portfolio turlari, CMS, Turbo Sayt.

<<1>>

Portfolio tushunchasi

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalashtirish ijodiy fikr-lovchi, ta'limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini qo'llay oladigan pedagoglar tarkibini shakllantirishni talab etadi. Boisi, hozirgi zamon yoshlari o'ta qiziquvchan va talabchan. U egallayotgan

bilimlari natijasini, tanlagan kasbining kelajagi bor yo'qligini bilishni istaydi. Shunday ekan, bu jarayon bugungi kun pedagogi va psixologidan davr bilan hamnafas bo'lishni, kirib kelayotgan axborot oqimlaridan to'g'ri, o'z o'rnida foydalanishni, yoshlarni kasbga yo'naltirishning innovasion ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqishni, mutaxassislar kasb portfelini yaratishni, kasblar katalogini shakllantirishni talab qilmoqda.

Bundan tashqari, ayni damda pedagoglarga nisbatan o'zining samarali faoliyatini tashkil qilishda o'quv, ilmiy hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni to'g'ri rejalashtirishi va amalga oshirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishda o'zgarib boruvchi zamonaviy talablarga tezkor ravishda moslashib borish kabi talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, pedagog kadrlarning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi raqobatbardoshligi uning ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyati, o'zgaruvchan hamda oshib borayotgan kasbiy talablarga moslasha olishiga bog'liq.

Shuning birla, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik faoliyat hamda kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ma'lumotlar bazasi va ta'lim oluvchilar bilan o'quv muloqotlarini elektron resurslar asosida tashkil etish pedagogik jihatdan muhim vazifalar qatoriga kiradi. Bunday vazifalar pedagog kadrlarning elektron portfoliosini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Portfolio o'zi nima va qachon paydo bo'lgan, bu hayotiy zaruriyatmi degan tushunchalarga izoh beraylik.

“Portfolio” tushunchasi XV-XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, uyg'onish davrida arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatlari haqida taassurot hosil qilgan. 1970 yillarda esa ommalashib, mazmun jihatdan bizni qiziqtirayotgan “portfolio” termini rassomlar, arxitektorlar va reklama biznesi sohasi vakillari orasida paydo bo'ldi. U fotomateriallar

kolleksiyasi, rezyume va muallifning eng yaxshi natijalari to'plamini anglatgan. Bunday portfolioning maqsadi uning egasi erishgan yutuqlarni reklama ko'rinishida namoyish etish, bu esa o'z navbatida portfolio egasi imkoniyatlari va o'z ishining qanchalik ustasi ekanligi to'g'risida xulosa qilish imkonini bergan.

Portfolioni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQShda paydo bo'ldi. AQSh va Kanadadan so'ng, portfolio g'oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g'oya Rossiyada keng tarqaldi va hozirgi kunda bu g'oya O'zbekistonda ham keng yoyilmoqda. "Portfolio" so'zi italyanchadan tarjima qilinganda, "qimmatli qog'ozlar portfeli", "hujjatlar yig'ma jildi", "mutaxassis yig'ma jildi" degan ma'nolarni, inglizchadan tarjima qilinganda esa "muhim ishlar yoki hujjatlar jildi", fransuzchadan tarjima qilinganda - "bayon qilmoq, ifoda etmoq, tashimoq" degan ma'nolarni anglatadi. Portfolio – bu hujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to'plamidan iborat. Ma'lumki, hozirgi zamon lug'atida portfolio so'zi – ma'lum bir vaqt oralig'ida shaxs erishgan yutuqlarni yig'ish, belgilab qo'yish va baholash usuli sifatida tushuntiriladi. Portfolioning asosi mohiyati – shaxsning nimaga qodir ekanligini ko'rsatish.

<<2>>

Elektron portfoliolarning turlari va ularning tarkibiy qismlari.

Yigirma yillar oldin portfolio odatda qog'ozda yaratiladigan bo'lsa, u hujjatlar joylangan yig'ma jild ko'rinishida bo'lar edi, elektron shaklda esa – magnit tashuvchilardagi fayllar ko'rinishida bo'ladi. Portfolioning elektron varianti elektron taqdimot yoki shaxsiy sayt (online-portfolio) shaklida ham bo'lishi mumkin. Birinchi shakl ko'proq ko'rgazmali bo'ladigan bo'lsa, ikkinchisi esa axborotlilik xarakterga ega bo'ladi.

Elektron portfolio - shaxsning tadqiqotchilik faoliyati boshlanishida muhim rol o'ynaydi. *Mutaxassis kasb portfoliosi* – mutaxassisning ijodiy yutuqlarini belgilash, to'plash va baholash usulidir. Mazkur portfolio mutaxassisning ish faoliyatini reglamentlovchi hujjatlar to'plami bo'lib, unga o'z foaliyatiga baho

berib borish imkonini beradi. *Portfolio* - mutaxassisning turli xil faoliyatda (o'quv, ijodiy, metodik, ilmiy-tadqiqot) erishgan natijalarini hisobga olish imkonini beradi.

Portfolioning asosiy maqsadi – mutaxassisning o'z bilimini oshirib borish, faoliyati tavsifi to'g'risida hisobot taqdim etish, mutaxassisning ijodiy va kasbiy ulg'ayishini kuzatish hamda unda refleksiya (o'z-o'zini baholash) ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Portfolioning asosiy vazifalari: analitik - mutaxassis ishini tahlil etadi va umumlashtiradi; jamlashlik - mutaxassis (jumladan, informatika o'qituvchisi) ning yutuqlarini namoyish etadi (yorliqlar, diplomlar, guvohnomalar, sertifikatlar va h.k.) va bajarilgan ijodiy ishlar ko'lamini ochib beradi (loyihalar, ilmiy tadqiqot ishlari, tadbirlar, bibliografik mahsulotlar va h.k.); modellik- kasbiy rivojlanish dinamikasini, ish uslubini tasvirlaydi, ish faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi; rivojlantirishlik - uzluksiz ravishda o'z bilimini oshirishni ta'minlaydi; motivlilik - ish faoliyati natijalarini rag'batlantiradi; tavsiyaviylik - shaxs ishini o'zgartirganda yangi ish joyiga tanishtiradi[24].

Portfolio bu, birinchi navbatda, mutaxassisning o'z imkoniyatlarni namoyish qilish uchun mo'ljallangan ishlar to'plami bo'lib, uning asosiy mazmuni - mutaxassisga barcha imkoniyatlardan foydalanish, uning kasbiy va aqliy o'sishga ko'maklashishga xizmat qiladi.

Portfolioning bir qancha turlari mavjud (1-ilova):

- mutaxassisning erishgan natijalari portfoliosi;
- refleksiv portfilio;
- muammolar portfoliosi;
- tematik portfolio;
- kasb portfoliosi;
- taqdimotli portfolio;
- majmual portfolio.

Mutaxassisning erishgan natijalari portfoliosi - uch qismga bo'linadi: hujjatlar; ishlar va bajarilgan ishlar to'g'risida fikrlar.

Refleksiv portfilio - mutaxassisning kasbiy rivojlanish dinamikasini o'zida jamlaydi.

Muammolar portfoliosi - mutaxassisning tahlil – sintez - baho berish darajasini anglatadi. Unda ma'lum bir muammoni yechish maqsadida to'plangan ma'lumotlar, muammoni yechish jarayoni va natijalari yig'ib boriladi.

Tematik portfolio - biron bir katta mavzuni o'rganish jarayonida yaratiladi. Bunday portfolioda asosan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan olingan ma'lumotlar, qo'shimcha manbalar, mavzuga oid muammoli vaziyatlar yaratish uchun to'plangan ma'lumotlar o'rin oladi.

Kasb portfoliosi - mamlakatimizda mavjud bo'lgan barcha kasblar to'g'risida ma'lumotlarni jamlanadi. *Kasblar katalogi* - mamlakatimizda mavjud bo'lgan 240 dan ortiq kasblar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar va kasblarning tavsifi, turlari bo'yicha tavsiyalar keltirilgan hamda bitiruvchilarning tanlangan kasblari bo'yicha ta'limning keyingi bosqichini mustaqil ravishda tanlashlari uchun oliy ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan yo'nalishlar kasblarga mos holda batafsil yoritib berilgan to'plamdir.

Taqdimotli portfolio – mutaxassisning eng yaxshi ishlari kolleksiyasi. Mazkur portfoliodan mutaxassis yangi ishga kirish yoki kasbiy tanlovlarda qatnashish vaqtida foydalanishi mumkin.

Majmualiy portfolio - yetti bo'limdan iborat.

1. Titul varag'i;
2. Vizit kartochka;
3. Ijodiy ma'lumotlar;
4. Ta'limiy kollektor;
5. Shaxsiy yutuqlar banki;
6. Taqrizlar portfeli;
7. Muallifning o'z-o'zini baholash bo'limlari.

<<3>>

Pedagogning portfoliosi haqida tushuncha.

Pedagogning portfoliosi quyidagi imkoniyatlarga ega:

- ✚ pedagogning ma'lum bir vaqt oralig'ida erishgan kasbiy yutuqlari va faoliyat natijalarini qayd etish usuli;
- ✚ faoliyati davomida kasbiy sohadagi erishilgan yutuqlarini namoyish etuvchi majmua;
- ✚ pedagogning dars berayotgan fani bo'yicha o'quv materiallarini talabalarga yetkazib beruvchi vosita;
- ✚ pedagog va talabalar o'rtasidagi o'quv muloqotini ta'minlashga xizmat qiluvchi tizim;
- ✚ talabalar bilan teskari aloqani o'rnatishga xizmat qiluvchi hamda bilimlarni o'zlashtirish jarayonini monitoring qilish tizimi (1-rasm).



1-rasm. Pedagog portfoliosi imkoniyatlari.


Pedagogning portfoliosi ta'lim muassasalari rahbariyati uchun o'qituvchilarning ish faoliyati unumdorligini monitoringini olib borish va yana ham muhim tomoni o'qituvchilarni o'z-o'zini kuzatish va o'z ustida ishlashi uchun muhim vosita hisoblanadi. Turli manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra *pedagog portfoliosi* – bu o'qituvchining aniq faktlar asosida yozilgan pedagogik sifati va yutuqlari hisoblanadi. Bundan tashqari portfolioda o'qituvchining individual yutuqlari, turli loyihalarda qatnashganliklari, talabalarining fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda g'olib bo'lganliklari qayd etib boriladi. Shu bilan birga

pedagog portfoliosi pedagogik-psixologik diagnostika natijalari, talabalar uchun fanlar bo'yicha nazorat qilish topshiriq va testlarini qamrab oladi.

Portfolio joriy etilishi bilan pedagogik faoliyatni baholashning va o'z-o'ziga baho berishning ko'p funksiyali vositasi shakllanadi. Bunda portfolio qator pedagogik masalalarni yechishda yordam beradi:


- ❖ ta'lim berishda yuqori motivasiyani rivojlantirish;
- ❖ talabalarning mustaqil ta'limi va o'z ustida ishlashga intilishni oshirish;
- ❖ uzluksiz rivojlanishni rag'batlantiruvchi omilni joriy etish;
- ❖ bilimlarning samarali o'zlashtirilishiga intilish;
- ❖ pedagogik faoliyat natijalarini tashhis qilish.

Bundan tashqari portfolio o'qituvchiga o'z yutuqlarini yanada kengroq va xilma-xil taqdim etish imkonini beradi.



2-rasm. <http://www.uchportal.ru/>

Misol sifatida <http://www.uchportal.ru/> saytini oladigan bo'lsak, bu saytda kasblar bo'yicha pedagoglarning portfoliolari joylashtirilgan (2-3-rasmlar).



3-rasm. <http://www.uchportal.ru/>

«The Teaching Portfolio» kitobi muallifi Piter Zeldin fikriga ko'ra o'qituvchi portfoliosi, kasb mahoratini shakllantirishdagi navbatdagi bosqich hisoblanadi. Portfolio – o'qituvchining kasbiy faoliyatida turli pedagogik masalalarni hal eta olish malakalarini ko'rsatuvchi, shuningdek o'qituvchining professionallik darajasini baholashga qaratilgan materiallarni qamrab oladi.

Portfolio quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- portfolio sayti (sayt ko'rinishidagi portfolio);
- veb sahifa (biror sayt tarkibidagi shaxsiy sahifa);
- elektron taqdimot;
- natijalar papkasi.

Elektron portfolio ko'rgazmaliligi, qulayligi, resurslarining aniq tuzilishiga egaligi bilan bir qatorda yana bir qancha o'ziga xos xususiyatlar va afzalliklarga ega:

- ✚ zamonaviyligi;
- ✚ tezkorligi (kerakli o'zgarishni tezda kiritish imkoniyati);
- ✚ funksionalligi (katta sondagi ekspertlarga, hamkasb-mutaxassislariga, qiziquvchilarga o'z tajribasini namoyish etish imkoniyati) hamda o'z muvaffaqiyatlarini qayd etib borish, bir vaqtning o'zida doimiy ravishda to'ldirib borish mumkin bo'lgan raqamli ta'lim resurslarining tizimlashtirilgan mediatekasini yaratish imkoniyatining mavjudligi;

✚ effektivligi (o'qituvchini o'z-o'zini baholashi, boshqaruvchi hamda talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish).

Portfolioning taqdimot shakli ma'lumotlarni ko'rgazmali tarzda namoyish etishni amalga oshirsa, sayt-portfolio shakli esa ko'proq ma'lumot olish va izlash imkoniyatini beradi. Internet izimining o'quv jarayoniga keng joriy etish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar portfolioning sayt-portfolio shaklida yaratish va uning resurslarini doimiy yangilanib borishini markazlashgan holda tizimli yo'lga qo'yish orqali samara berishi mumkin.

Shuning uchun portfolioni tarmoqda sayt-portfolio sifatida joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Portfolioning muhim jihati – pedagogning kasbiy kompetentligini baholash uchun amaliy faoliyatdagi natijalarini (bajargan loyihalari, talabalarining olimpiada va tanlovlarda qatnashganligi, olib borgan ilmiy izlanishlari kabilarni) namoyish etishdan iborat. Portfolio o'qituvchiga o'z ishlari natijalarini tahlil etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, o'z imkoniyatlarini obyektiv baholash va qiyinchiliklarni bartaraf etishni rejalashtirish hamda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Portfolio resurslarini shakllantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq:

- ❖ tizimlilik;
- ❖ taqdimotlilik;
- ❖ yutuqlarni haqqoniy, to'g'ri baholash;
- ❖ taqdim etilayotgan axborotlarning to'liqligi, aniqligi va ishonchliligi;
- ❖ ma'lumotlarning obyektivligi.

Shunday qilib, portfolio pedagogik faoliyatning turli xil ko'rinishlarida (o'quv, tarbiyaviy, ijodiy, metodik, tadqiqot) o'qituvchi tomonidan erishilgan yutuqlarini yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Bir qancha mualliflar o'z maqolalarida elektron portfolioni bir nechta variantlarini taklif etishgan:

✚ yutuqlar portfoliosi – ushbu portfolioda ahamiyat faoliyatdagi yutuqlarni tasdiqlovchi hujjatlarga qaratiladi;

✚ taqdimot portfoliosi – o'qituvchining eng yaxshi ishlari to'plami, ushbu portfolio yangi ishga kirayotganda, suhbatdan o'tish uchun yoki turli tanlovlarda qatnashish uchun kerak bo'ladi;

✚ hisobot ko'rinishidagi portfolio – biror-bir loyiha ishini tugatayotgan vaqtda bajarilgan ishlar va erishilgan yutuqlar haqida ma'lumot beradi;

✚ majmuaviy portfolio – yuqorida ko'rsatilgan portfolio ko'rinishlarini qamrab oladi va o'qituvchi portfoliosini namoyish etishga xizmat qiladi.

<<4>>

Pedagogning elektron portfoliosi tizimi

(<http://portfolio.bimm.uz/>)

Pedagogning elektron portfoliosi uning kasbiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq resurslar, talabalarning fan bo'yicha ma'lumotlarni olishlari, nazorat topshiriqlari hamda talabalar bilimini o'zlashtirish monitoringi natijalarini qayd etish imkoniyatini beruvchi tizim sifatida shakllantirildi.

Mazkur jarayonda pedagoglarning elektron portfolio yaratishdagi faoliyatini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq: birinchidan, pedagoglar portfoliosi dasturiy platformasi yaratiladi va uning imkoniyatlari bilan barcha pedagoglar tanishtiriladi; ikkinchidan, pedagoglar o'zlariga tegishli kasbiy ma'lumotlar va ta'lim resurslarni shakllantirib dasturiy platformaga joylashtirishi tashkillashtiriladi; uchinchidan, elektron portfolioning axborot xavfsizligini ta'minlagan holda uning doimiy, uzluksiz faoliyatini yo'lga qo'yish, resurslarini muntazam yangilanib borishini ta'minlash, foydalanuvchilar uchun maxsus kirishlarni tashkillashtirish.



4-rasm. <http://portfolio.bimm.uz/> - elektron portfolioning bosh sahifasi ko'rinishi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi portali tarkibida "Pedagog portfoliosi" dasturiy platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi (<http://portfolio.bimm.uz/>) (4-rasm).

Mazkur platformaning vazifasi oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining yagona markazlashgan portfoliosini joriy etish, ular uchun kasbiy faoliyat natijalari va tegishli fanlari bo'yicha ta'lim resurslarini yaratish imkoniyatini yaratish va pedagogik faoliyatning kompleks monitoringini tashkil etishdan iborat.

Portfolio uch qismdan tashkil topgan:

Birinchi qismda pedagogning malaka oshirish jarayonlari bilan bog'liq ma'lumotlar joy olgan. Bu ma'lumotlar pedagog tomonidan kiritilmaydi. Oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlarida tinglovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan pedagoglarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonida ma'lumotlar tizimga avtomatik tarzda yig'ilib boriladi. Bu ma'lumotlarga tinglovchi anketasi, uning kunlik davomati, kirish va chiqish testi natijalari, malakani himoya qilish ishi mavzusi va bali, qoldirilgan dars soatlari, olingan diplom, sertifikat yoki ma'lumotnoma nomeri va hokazolar kiradi (5-rasm).



5-rasm. Pedagogning malaka oshirganligi to'g'risidagi ma'lumotlar

Portfolioning ikkinchi qism pedagogning kasbiy faoliyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, bu qismdagi ma'lumotlar berilgan login va parol asosida uning shaxsiy kabinetida tegishli bo'limlarga shaxsan pedagog tomonidan davriy to'ldirilib boriladi (6-rasm).

Bu ma'lumotlar asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarga bo'lingan. Asosiy ma'lumotlar pedagogning kasbiy faoliyatida erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

O'quv va o'quv - metodik faoliyati:

- ✚ o'quv jarayonining me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishdagi ishtiroki;
- ✚ dars beradigan fanlari ro'yxati;
- ✚ fanlarning namunaviy dasturlarini yaratishdagi ishtiroki;
- ✚ o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy

etishdagi faoliyati;

- ✚ nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining mavjudligi.

Ilmiy - tadqiqot faoliyati:

- ✚ ilmiy daraja va unvonining mavjudligi;
- ✚ monografiya va ilmiy maqolalar chop etilganligi.



6-rasm. Kasbiy faoliyat natijalarini kiritib borish sahifasi

Respublika va xalqaro miqiyosdagi ilmiy konferensiyalardagi tezlari mavjudligi;

- ✚ mablag' bilan ta'minlangan ilmiy-tadqiqot ishlaridagi ishtiroki;
- ✚ patentlar, ixtirolar va rasionalizatorlik takliflarining mavjudligi.

Tashkiliy - metodik faoliyati:

✚ umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha Respublika va Xalqaro olimpiadasi, sport musobaqasi va badiiy ko'rgazmalarda g'olib va sovrindor bo'lgan talabalarinig mavjudligi;

- ✚ ochiq ma'ruzalar tashkil etilganligi.

Qo'shimcha ma'lumotlar - portfoliidagi sahifa shaxsiylashtirilishi bilan bog'liq bo'lib, quyidagilardan tashkil topgan:

- ✚ portfolio sahifasidagi parolni o'zgartirish;
- ✚ portfolio sahifasidagi rasmni o'zgartirish;
- ✚ portfolio sahifasidagi anketa ma'lumotlarini o'zgartirish.

Portfolioning uchinchi qismida pedagoglar o'zlarining fanlari bo'yicha sillabus va boshqa o'quv materiallarini kiritib boradilar.

Bu materiallardan faqatgina ruxsat etilgan talabalargina foydalana oladilar. Buning uchun talabalar ham albatta tizimga ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari talab etiladi. Shuningdek, talaba va pedagog o'rtasida virtual muloqotni yaratish maqsadida "chat" (yozishmalar) tizimi ham joriy qilingan (7-rasm).



Rasm 7. “Chat (yozishmalar)” oynasi ko’rinishi

<<5>>

Elektron portfolio bilan ishlash va uni shakllantirish

Professor-o’qituvchilar o’zlarining elektron portfoliolariga (ularga berilgan maxsus login) kirganida quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

1. “Pedagog” menyusining “Sozlovlar” qismiga o’tadilar. “Sozlovlar” qismi olti punktdan iborat bo’lib, unda o’qituvchilar quyidagi amallarni bajaradilar:

a. “Parolni o’zgartirish” – elektron portfolio tizimidagi shaxsiy parolni o’zgartirish. Buning uchun “Joriy parol” maydoniga joriy parolni, “Yangi parol” va “Parolni takrorlang” maydonlariga o’rnatilmoqchi bo’lgan yangi parolni ikki marta kiritiladi hamda tasdiq kodini kiritib “Parolni saqlash” tugmasi bosiladi;

b. “Rasmni o’zgartirish” – portfolioda aks etadigan rasm blankasining o’rniga o’zining rasmini o’rnatish. Bunda ikki usul mavjud:

Birinchi usul, “Rasmni yuklash” qismini tanlanadi va hajmi 512 Kb dan oshmaydigan “.jpg” formatdagi rasmni ma’lumot tashuvchi (kompyuter xotirasi, CD yoki DVD disk, flesh xotira) dan tanlab, “saqlash” tugmasini bosiladi;

Ikkinchi usul, agar kompyuter yoki noutbukda veb-kamera mavjud bo’lsa “Veb kameradan rasm tushirish” qismini tanlab, “Capture” so’ng “Upload” tugmalarini bosib rasm o’zgartiriladi.

c. “Shaxsiy ma’lumotlarni tahrirlash” – portfoliodagi anketa (anketa, kasbiy va qo’shimcha) ma’lumotlarini tahrirlash. Bunda har bir maydonni diqqat bilan tanishib, xato yoki o’zgargan ma’lumotlar mavjud bo’lsa uni tahrirlab tasdiq kodi kiritiladi va “Saqlash” tugmasi bosiladi;

“Sozlovlar” menyusining keyingi uch qismi professor-o’qituvchining kasbiy faoliyati natijalari asosida to’ldiriladi.

d. “O’quv va o’quv-metodik faoliyat” – bu bo’lim to’rtta tarkibiy qismdan iborat bo’lib, ular:

1. “Petentlar, ixtirolar va rasionalizatorlik takliflari”;
2. “Model va dasturlar yaratishdagi ishtiroki”;
3. “Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishga doir o’quv-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqishdagi ishtiroki”;
4. “Nashr etilgan darslik va o’quv qo’llanmalar”.

e. “Ilmiy tadqiqot faoliyati” – bu bo’lim uchta tarkibiy qismdan iborat bo’lib, ular:

1. “Monografiya va ilmiy maqolalar chop etilganligi”;
2. “Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalardagi tezislar”;
3. “Mablag’ bilan ta’minlangan ilmiy-tadqiqot ishidagi ishtirok”.

f. “Tashkiliy - metodik faoliyat” – bu bo’lim ikkita tarkibiy qismdan iborat bo’lib, ular:

1. “Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo’yicha Respublika va xalqaro olimpiada, sport musobaqasi va badiiy ko’rgazmalarda g’olib va sovrindor bo’lgan talabalar”;
2. “Ochiq ma’ruzalar tashkil etilganligi”.

Professor-o’qituvchida yuqoridagi faoliyat natijalaridan qaysilari mavjud bo’lsa o’sha qismni tanlaydi va shu faoliyat natijasi haqidagi ma’lumotlarni kiritish formasi hosil bo’ladi. Unda faoliyat turilaridan kelib chiqib bir-biridan biroz farq qiluvchi ma’lumotlarni (Manba nomlanishi, nashr yili, hammualliflar soni) va tasdiqlovchi hujjat nusxasini kiritish maydonlari mavjud bo’ladi. Ma’lumotlar va

hujjat nusxasini kiritib “Saqlash” tugmasini bosish orqali kasbiy faoliyat natijasi haqidagi ma’lumotlar to’ldirib boriladi.

2. “Pedagog” menyusining “Fanlarim” qismida professor-o’qituvchilar o’zlari dars berayotgan fanlari haqidagi ma’lumotlar, fan sillabusi va boshqalarni kiritishlari mumkin. Buning uchun dastlab “Fan qo’shish” tugmasini bosish orqali yangi fan haqidagi ma’lumotlarni kiritish formasiga o’tiladi. Ushbu formada “OTM”, “Kafedra”, “Yo’nalish”, “Fan o’qitiladigan til”, “Fanning nomlanishi” va “Fanning sillabusi”ni kiritilib “Saqlash” tugmasi bosiladi.

Fan haqidagi ma’lumotlar kiritilgandan so’ng, fanlar ro’yxatidan yangi kiritilgan fanni tanlanadi. Bunda ikkita “Sillabus” va “Manbaalar” nomli qismlardan iborat oyna ochiladi. Bu oynaning “Manbaalar” qismiga o’tib “Manbaa qo’shish” tugmasi bosiladi va fanga elektron formatdagi manbaalar (fanning o’quv va ishchi dasturlari, nazorat savollari, taqdimotlar, ma’ruza matnlari va h.) kiritiladi.

“Pedagog” menyusining “Yozishmalar” qismida professor-o’qituvchilar o’zlarining talabalari tomonidan berilgan savollarga javob berishlari yoki fikr almashishlari mumkin.

Elektron portfolio yaratishga mo’ljallangan dasturlar.

Hozirgi kunda elektron portfoliosi bo’lishini istamagan pedagog bo’lmasa kerak. Har bir elektron portfolio yaratishga qiziquvchi inson, avalambor, portfolio yaratishda murakkablik tug’dirmaydigan, qulay interfeysli dasturiy vositani tanlaydi.

Dasturiy vosita tanlangandan so’ng, elektron portfolio uchun zaruriy materiallarni yig’ib oladi. Shu kabi, o’z faoliyati davomida bajargan ijodiy ishlaridan namunalarni (didaktik materiallar): animasion lavhalar, multimediali mahsulotlarni portfolioga joylashtirishga harakat qiladi.

Demak, elektron portfolio yaratishda nafaqat portfolio yaratishga mo’ljallangan dasturiy vositalar, balki qo’shimcha didaktik materiallar yaratishga mo’ljallangan dasturiy vositalar to’g’risida ham bilim, ko’nikma va malakaga ega

bo'lish lozim ekan. Ammo, hamma pedagog-xodimlar ham dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega emas.

Chunki, u dasturlar pedagoglardan elektron portfolio va didaktik vositalarni yaratishda juda katta mehnat va tayyorgarlik talab etadi va ularda dasturlar bilan ishlash bilim, ko'nikma va malakalari shakllangan bo'lishi lozim. Portfolio yaratish uchun pedagoglardan yuqori darajada professionallikni talab etadigan dasturlarni quyida sharhlab o'taylik:

✚ Elektron portfolio yaratishga mo'ljallangan dasturlar Microsoft Front-Page (HTML-Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Dreamweaver va Joomla, Drupal, DataLife kontentni boshqarish tizimlari;

✚ Grafik va rasmlar didaktik materiallar yaratishga mo'ljallangan dasturlar Corel Draw, Corel Xara, Corel Photo Paint, Adobe Photo Shop, Adobe Illustrator;

✚ Dinamik illyustratsiyali didaktik materiallar yaratishga mo'ljallangan dasturlar Disreet 3D Studio MAX, Alais Wave Front, Maya, Light Wave, SoftImage 3D, Adobe Image Ready, Gif Animator, Macromedia Flash, Adobe Premier;

✚ Ovozli jarayonlarni taqdim etish va ovozni tahrir qilishga mo'ljallangan dasturlar SonicFoundry SoundForge, Wave Lab, Sound Recorder;

✚ Ma'lumotlar bazalarini yaratishga mo'ljallangan dasturlar Microsoft Excel, Microsoft Access.

Shunday ekan, biz AKT sohasida mutaxassis bo'lmaganlar uchun qulay va sodda dasturni tavsiya etishimiz lozim. Pedagoglardan elektron portfolio va didaktik vositalarni yaratishda maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydigan dasturlar sirasiga quyidagi dasturlarni kiritish mumkin:

- “eCourse Master” interaktiv muhiti.
- “Info Trans Editor” elektron kitoblar konstruktori.
- “TurboSite” - sayt yaratish konstruktori.
- “Hot Potatoes” - interaktiv mashqlar yaratish dasturi.
- “iSpring Suite” dasturi – interaktiv testlar, kitoblar, tez-tez uchraydigan savollar, vaqt shkalasi yaratishga mo'ljallangan.


III-BOB. MUTAXASSIS KASB PORTFOLIOSINI AMALIY QO‘LLAY OLISHLARINI O‘RGATUVCHI DASTURIY VOSITA TAVSIFI

3.1. O‘rgatuvchi videoma‘ruzadan foydalanish metodikasi

Bosh ilmiy metodik markazning professor o‘qituvchilar uchun bajarilgan ishlarni baholatish uchun mo‘ljallangan “portfolio.bimm.uz” axborot tizimiga ma‘lumotlarni kiritishni o‘rgatuvchi videoma‘ruzlarni ko‘rish uchun My Project papkasidan qo‘yidagi faylni ishga tushiramiz



Natijada multimediali o‘qitish dasturi tayyorlangan elektron o‘quv resursning bosh oynasi hosil bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Elektron o‘quv resursning bosh oynasi

Bosh oyna qo‘yidagi qismlardan iborat:

- Bosh sahifa - bu bo`limda Elektron o`quv resursning bosh oynasiga o`tiladi.
- Videoma'ruzalar
 - Kirish
 - Tanishuv
 - Ma'lumotlarni kiritish
 - Foydalanuvchi profili bilan ishlash

Yuqorida sanab o`tilgan komponentalardan foydalanish metodikasi bilan tanishamiz chiqamiz:

“Kirish” nomli videoma'ruzada foydalanuvchi tizimdan birinchi marotaba foydalanayotgan paytda qo`llashi lozim bo`lgan amallarni o`rganadi. Dastlab portfolioga kirish uchun uning URL manzilini kiritishni to`g`ri bajarish kerak. Keyingi qadamda tizim foydalanuvchi rolini tanlashi lozim. Ishni boshlashdan avval foydalanuvchi akkauntini taxrirlashi maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib akkauntni taxrirlash amallarini o`rganamiz.

“Tanishuv” nomli videoma'ruzada foydalanuvchi axborot tizimining menyular satri va ish stoli bilan tanishadi. Belgilab berilgan foydalanuvchi roli yordamida qanday amallarni bajarishni o`rgatadi.



“Ma'lumotlarni kiritish” nomli videoma'ruzada professor o`qituvchilar bajargan ishlarni elektron ma'lumotlarni tizimga kiritishni o`rganadi.

“Foydalanuvchi profili bilan ishlash” nomli videoma'ruzada professor o`qituvchilar shaxsiy ma'lumotlarini taxrirlashlari mumkin. Buning uchun “Sozlovlar” bo`limiga kirib, “Parolni o`zgartirish” tugmasini tanlash orqali amallarni bajarish mumkin bo`ladi.

3.2. Kompyuter tizimlaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari

Korxonalar ma'muriyati va muhandis-texnik xodimlarning asosiy vazifalari mehnat haqidagi qonunlar majmui uchun hamda xavfsizlik yo'llar ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari bilan belgilanada. Ishlab chiqarishda shikastlanish va kasbiy kasalanishlarni kamaytirish hamda ularning oldini olishga oid mehnat muxofazasi bo'yicha ishlarni amalga oshirish va tadbirlarni ishga umumiy rahbarlik hamda bu ishga javobgarlik korxona rahbari va uning o'rinbosari bosh muxandis zimmasiga yuklatiladi[26].

Korxona rahbari:

- ishlab chiqarishda shikastlanish va kasbiy kasallanishlarning oldini oluvchi tashkiliy texnik tadbirlarni rejalashtirishga;

- ana shu tadbirlar uchun o'z vaqtida mablag' ajratishga va ularni o'tgazishga doir ro'yxatlarni tasdiqlashga hamda mehnat sharoitini mustahkamlash va sog'lomlashtirish uchun ajratilgan mablag'ni to'g'ri sarflanishini nazorat qilib borishga;

- mehnat muhofazasiga doir jamoa shartnomalari va bitimlarining bajarilishini ta'minlashga;

- mehnat va dam olish tartibi , ayollar hamda o'smirlar mehnatini muhofaza qilish haqidagi mehnat qonunlariga amal qilishga;

- kasaba uyushmasi texnik nazoratchilari va jamoatchi nazoratchilar hamda mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi kommissiyasining mehnat muhofasiga doir buyruqlarni bajarishga;

- ishlar va kasblarning ayrim turlari uchun xavfsizlik yo'llari bo'yicha yo'riqnomalarni tasdiqlashga;

- ishchi va xizmatchilarni o'z vaqtida amaldagi me'yorlarda muvofiq korxona maxsus yakka tartibdagi himaya vositalari va oziq-ovqatlar bilan ta'minlashga majbur[26].

Bosh muhandis:

- hamma sexlar va bo'linmalar boshliqlarining muhofazasiga, xavfsizlik yo'llari hamda ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari hamda mavjud ishlab

chiqarish sharoitiga muvofiq , kasiblar va ishlar turlari bo'yicha xavfsiz ishlar yo'llari hamda usullariga doir yo'riqnomalarni ishlab chiqarishga qo'llanilishiga rahbarlik qilish;

-xavfsiz ishlash usullari yo'l-yo'riqlarini o'rganish yuzasidan o'qitish olib borilishini nazorat qilish;

-ishchilarning dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tkazilishini nazorat qilish;

- xavfsiz ishlash usullarining ommaviy tartib qilinishini , xavfsizlik xonalarida ma'ruzalar, suhbatlar o'tkazilishini , xavfsizlik xonalarida ma'ruzalar , suhbatlar o'tkazilishini xavfsizlik yo'llariga oid plakatlar va ogohlantiruvchi yozuvlar tayyorlanishini nazorat qilish;

-kasaba uyushmasi tashkiloti bilan birgalikda mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga oid ishlarning ahvoplari tekshirish hamda mehnat muhofazasi yuzasidan qabul qilingan qarorlarning ishchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

-zamonaviy tuzilishdagi to'siq texnikasini ,sermrhnat jarayonlarni avtomatlashtirishni, shamollatish va sanitariya maishiy uskunalarni joriy etish;

- mehnat muhofazasi ,ishlab chiqarish madaniyati va texnik estetika sohasida tajriba almashish ishiga rahbarlik qilish;

-ishchilarga o'z vaqtida sifatli korxona , maxsus poyabzal va yakka tartibdagi himoya vositalari berilishini nazorat qilish;

xavfsizlik yo'llari, ishlab chiqarish sanitariyasiga doir amaldagi qoidalarga, kasaba uyushmasi texnik nazoratchisi va jamoatchi nazoratchilarning mehnat muhofazasiga doir buyruqlarga amal qilishini nazorat qilish;

-ishlab chiqarishda shikastlanish to'g'risidagi belgilangan muddatlarda hisobotlar hamda mehnat sharoitini sog'lomlashtirishga ajratilgan mablag'larning sarflanishini nazorat qilish;

Bosh muhandis energetik:

-binolar , inshootlar, energosistemalar, turli uskunalarni profilaktik ko'zdan kechirishlar va rejali-oldini olish tuzatishlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda o'z

vaqtida o'tkazilishiga shuningdek tuzatish ishlarining xavfsiz bajarilishiga javobgarlik;

-kranlar va boshqa turdagi yuk ko'tarish mexanizmlari hamda dastgohlari, mexanik uskunalardan bosim ostida ishlaydigan yuk va suv isitish qozonlari, apparatlar, idishlar hamda uskunalarni o'z vaqtida texnik tekshiruvdan o'tkazilishiga javobgarlik;

-elektr jihozlari, kuch va yoritish elektr tarmoqlari elektr taqsimlash uskunalari yashindan himoyalagichning soz holatda bo'lishini muntazam nazorat qilish;

-shamollash qurilmalari va isitish sistemalarining tegishli holatda bo'lishini nazorat qilish;

-nomenklaturadagi tadbirlarga doir bitimga muvofiq mehnat muhofazasiga oid tashkiliy-texnik tadbirlarning no'z vaqtida amalga oshirilishiga javobgarlik.

Sex boshliqlari, ustalar:

ishlarning mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoida hamda me'yorlarga amal qilishlarini ta'minlashga, xavfli va zararli mehnat sharoiti bilan bog'liq ishlarni bajarishda barcha extiyotkorlik choralarini bajarilishini nazorat qilish;

-mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir amaldagi qoidalar hamda me'yorlarga muvofiq, xavfsiz ishlash yo'llari va usullari yuzasidan yo'riqnomalar ishlab chiqishda qatnashishga;

-barch ishchilarga xavfsiz ishlash yo'llari va usullarini o'rgatishga shuningdek o'z tasarrufidagi bo'linma ishchilariga xavfsizlik yo'llaridan yo'l-yo'riqlar berishga majbur[26].

Mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir ishlarni tashkil qilishga javobgar bo'lgan xavfsizlik yo'llari bo'yicha muhandis zimmasiga quyidaagi vazifalar yuklatilgan:

-boshlang'ich yo'l-yo'riqlarni berish;

-amaldagi qonunlarning president, vazirliklar va idoralarning qarorlari hamda farmoyishlarning, shuningdek, xavfsizlik yo'llariga doir qoida va me'yorlarning sexlar,bo'limlar rahbarlari tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

- xavfsizlik yo'llaridan yo'riqnomalar ishlab chiqishda qatnashish hamda ularning to'g'ri qo'llanilishini tekshirish;

-xavfsizlik yo'llariga oid bo'lgan buyruq va loyhalarini tayyorlash;

-mehnat sharoitini yaxshilashga doir tadbirlar ishlab chiqish, xavfsizlik yo'lari bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar rejalari loyihalarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

-mehnat muhofazasi va xavfsizlik yo'llariga oid mukammalroq to'siqlar va saqlovchi uskunalarni ishlab chiqarishda hamda ularning, shuningdek ilmiy-tekshirish oliygohlari ilg'or korxonalarning shu sohadagi takliflarni ishlab chiqarishga joriy etishda qatnashish;

-korxonani qishgi va yozgi sharoitda ishlashga tayyorlash tadbirlarini ishlab chiqishda qatnashishi va ularning amalgam oshirilishini nazorat qilish ;

-jomoa shartnomasida ko'zda tutilgan mehnat sharoitlarini sog'lomlashtirish va yengillashtirish tadbirlarining bajarilishini tekshirish;

-binolar, inshootlar apparatlar, uskunalarni ko'rish, qayta ko'rish, capital tuzatish loyihalarini ko'rib chiquvchi va ularni foydalanishga qabulqilib oluvchi komissiyalarda qatnashish;

-ishchilarga xavfsizlik yo'llaridan yo'l-yo'riq berish va muhandis-texnik xodimlar hmda ishchilarning xavfsizlik yollari kursida o'qitilishining tashkil etish;

-ish xonalardagi ko'rinadigan joylarga mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir amaldagi hamma qarorlar,qoida va meyorlarni osib qo'yish;

- xavfsizlik yo'llari xonalarini jixozlash, xavfsizlik yo'llariga oid stend hamda vitrinalar tashkil etish, plakatlar va ogohlantiruvchi yozuvlarni osib qo'yish;

- ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning sharoiti sabablarini tekshirishda qatnashish hamda ularni bartaraf etish va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarni hisobga olib va qayd qilib borish , ishlab chiqarishda shikastlanishlarni tahlil qilish;

- xavfsizlik yo'llari ishlarini yaxshi yo'lga qo'ygan xodimlarni taqdirlash va xavfsizlik yo'llari talablari va qoidalarini buzganlarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish to'g'risida korxona rahbariyatiga takliflar berish.

Mehnat muhofazasi muhandisi:

- xavfsizlik yo'llari talablari va qoidalarining buzilishlarini bartaraf etish haqida bo'linmalar, xizmatlar ,bo'limlar rahbarlariga ko'rsatmalar berish. Bunday ko'rsatmalar faqat rahbar yoki bosh muhandis tomonidan bekor qilinishi mumkin ;

- ishlovchilarning hayoti va sog'ligi uchun yaqqol paydo bo'lganda bo'limlar , dastgohlar va uskunalarda ishlashni ta'qiqlab qo'yish yoki to'xtatish va bu haqda rahbariyatga ma'lum qilish ;

- xavfsizlikni ta'minlay olmaydigan , talabga javob bermaydigan uskunalar, asboblari, moslamalarni foydalanishdan chiqarish choralarini ko'rish ;

- ishlab chiqarish bo'limining rahbari bilan birgalikda ,xavfsizlik yo'llari talablari va qoidalarini buzganlari va vaqtincha chetlatish.

Xavfsizlik yo'llari bo'yicha mehnat muhofazasi muhandisi bevosita korxonaning rahbari va bosh muhandisga bo'ysunadi .O'z ishini bu mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi mehnat muhofazasi bo'yicha komissiya shuningdek, kasaba uyushmalarining texnik nazoratchilari , davtog'texnazorat, devenernazorat va sanoattexnazorat , yong'innazorati bilan hamkorlikda amalgam oshiradi .

Mehnat muhofazasiga doir tadbirlarni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash. Sanoat korxonalarida mehnat muhofazasiga oid ishlar tashkiliy-texnik tadbirlarning kompleks rejasi asosida amalga oshiriladi. Bu tadbirlarni korxona ma'muriyati mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan ishlab chiqadi [26].

XULOSA

Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisi portfoliosi uning kompetentligi va raqobatbardoshligini ko'rsatuvchi kasbiy o'sish monitoringini olib borish, o'quv jarayonini yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan didaktik va uslubiy materiallar kolleksiyasi, ta'limni masofaviy qo'llab-quvvatlash vositasi ekanligini inobatga olgan holda, bo'lajak mutaxassislarni kasb portfoliosi tuzishga yo'naltirish, kasbiy faoliyatlariga nisbatan qiziqishlarini orttiribgina qolmay, o'z ustida ko'proq ishlashga, mehnatga ongli munosabatda bo'lishga, o'z kasbiy faoliyatlari va uning kelajagi to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lishga, keyingi faoliyatlari to'g'risida o'ylashga, kasbiy malaka egallashiga, ham ijtimoiy tajribaga ega bo'lishlarida ko'maklashishga, jumladan, ham individual, ham jamoaviy qarorlarni qabul qilishiga, professional, nazariy va amaliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, ko'proq bilishga da'vatlantirishga, o'z kasbining malakali ustasi bo'lishida intilishlarini kuchaytirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Talaba faoliyatini, uning erishgan yutuqlarini hisobga olish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida obyektiv baholash hamda unda adekvat ravishda o'z-o'zini baholash imkoniyatini va o'z ko'rsatkichlariga tanqidiy munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish pedagog-xodimlarning eng muhim va ahamiyatli vazifalaridan biri ekanligini yodda tutmog'imiz lozim.

Bundan tashqari, pedagog uchun bo'lajak mutaxassislarni kasb portfoliosi tuzishga yo'naltirishda innovatsion texnologiyalar asosida darsni tashkil etish, an'anaviy dars berish usulidan talabalar ehtiyojini qondiruvchi progressiv usullarga o'tishida muhim o'rin tutadi.

Sodda dasturiy vositalarni ta'lim tizimiga tadbiq etish esa, iqtisodiy samara berishi bilan bir qatorda, o'quv jarayonida yangi o'qitish uslublarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi, o'quv jarayonini faollashtirish birla, o'quvchilarda o'qish motivlarini o'stirishga imkon qadar yordam beradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida:

- Mutaxassis kasb portfoliosiga oid xorijiy mamlakatlarning tajribalari o'rganildi;

- Portfolio yordamida ta'lim tizimini takomillashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlar aniqlandi;
- Mutaxassis kasb portfoliosining mazmun-mohiyati, unga quyiladigan talablar hamda uni talabalarga o'qitishning nazariy masalalari o'rganib chiqildi va bayon etildi;
- Portfolioni rasmiylashtirishda quyiladigan talablar o'rganib chiqildi;
- Portfolioni yaratishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotlarning tahlili keltirildi;
- Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi kasb portfoliosi tuzilmasi ishlab chiqildi;
- Oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;
- Kasb portfoliosini to'ldirishda qiyinchilik tug'dirmaydigan dastur (Auto Play) yordamida portfolioni to'ldirish texnologiyasi o'rgatuvchi videoma'ruzalar ishlab chiqildi.

Ammo shu bilan bir qatorda bu sohada o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Ana shunday muammolardan biri jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bilan bog'liq holda Informatika ta'lim mazmunida ro'y beradigan o'zgarishlar hisobiga professor-o'qituvchilarning AKT sohasidagi tayyorgarligini ta'minlashga ko'maklashuvchi metodik ko'rsatma va tavsiyalar yaratish lozimligi, elektron portfolio yaratish mexanizmini va dasturiy vositalardan foydalanish texnologiyasini egallab olgan mutaxassislarning yetishmasligi, ular jumlasiga mutaxassis bo'lmagan professor-o'qituvchilarning dasturchilar, texnik mutaxassislarsiz portfolio yaratishlari, muammolarga duch kelishlari, vaqtning ko'proq talab etilishi, dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar va boshqa jihatlar kiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida, bitiruv malakaviy ishda elektron portfolioni to'ldirishga mo'ljallangan videoma'ruzalar keltirildi,

shuningdek, mutaxassis bo'lmaganlar uchun eng sodda dastur yordamida elektron portfolio yaratish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqildi.

Bu dasturiy vosita va yo'riqnomadan nafaqat talabalar, balki professor-o'qituvchilar, magistrantlar o'z bilim darajalarini oshirishda, o'z portfoliolarini yaratishda muhim axborot manbai sifatida foydalanishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. -176 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т., 2014.
3. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни// Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” тўғрисидаги Қонуни.// Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда.—Тошкент, 29 август, 1997 й.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Хайъатининг “Олий таълим тизимида ўқув жараёни ва ўқув услубий фаолиятни модернизациялаш ҳамда инновацион таълим технологияларини жорий этиш тўғрисида”ги Қарори.// –Тошкент. 2010 йил 17 апрель.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.// - Тошкент. 2015 йил 12 июнь.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида «Электрон таълим» миллий тизимини яратиш» инвестиция лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» Қарори.// - Тошкент. 2012 йил 16 апрель.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. // - Тошкент. 2011 йил. Май
9. Safarova R.G’., Musaev U.Q., Inoyatova M.E., Musaev J., Akramova G., Nurjanova R., Baqoeva L., Yusupova F., Mirzaeva M., Hasanova G., Ne'matov

Sh., Ma'murov B., Mahmudova D. Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari. – Toshkent: Fan, 2008.

10. Соловов А.В. Дидактический анализ проблематики электронного обучения /Статья опубликована в трудах Международной конференции "IEEE International Conference on Advanced Learning Technologies". -Казань: КГТУ, 2002. С. 212-216. (<http://cnit.ssau.ru/do/articles/didakt/didakt.htm>).

11. Зарипова М. Д. Возможности использования программы Turbo Site для создания электронных учебных пособий. ВЫСШАЯ ШКОЛА. Научно-практический журнал. №21 / 2016. С. 46-52

12. Hayot faoliyati xavfsizligi. A. Qudratov, T. G'aniyev va boshqalar. Toshkent, Aloqachi, 2005.

13. M. Zaripova, O. Xatamov, Sh. Esanov. “Hot Potatoes dasturi yordamida interaktiv mashqlar yaratish” Uslubiy qo'llanma. Termiz.: 2014. – 74 b.

14. Зарипова Н.Ж. Зарипова М.Д. Использование программы iSpring Suite при создании мультимедийных электронных учебных пособий. Тамбов. ГАУДЕМАУС. 2012, №2 (20), С. 92-95.

15. Музаффарова Л.Н. Как использовать учебный портфель (портфолио). <http://www.ziyonet.uz>

16. С. Мусаева “Портфолионинг мақсад ва моҳияти” Педагогик таълим журнали, 2013 йил 1-сон, 20-бет.

17. Конева С. Ўқитувчи электрон портфолиоси тузилмаси ва педагогик технологиялар. Infocom.uz журнали, 2013 й., №10.

18. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим муассасаларини бошқаришда менежментнинг асосий тушунчалари.-Т.: “Фан”, 2006.

19. У.Бегимкулов, Т. Шоймардонов и др. Информационно-методическое обеспечение непрерывности образовательного процесса на основе электронного сопровождения. Материалы международной конференции. Санкт-Петербург (Россия), 2012 год, 5 стр.

20. У.Ш. Бегимкулов ва бошқалар. Педагогик таълимни ахборотлаштириш: назария ва амалиёт. Тошкент.: Фан, 2011. -177 б.

21. Мардонов Ш.К. Подготовка и повышение квалификации педагогических кадров: Монография. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2008. – 127 с.
22. Закирова Ф.М. ва бошқалар. Электрон ўқув-методик мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. Методик қўлланма. – Т.: ОЎМТВ, 2010. – 57 б.
23. Тохиров Ў. Касб портфолиоси қандай шакллантирилади. “Касбий фанлар методикаси” журнали, 2013 й., № 4.
24. И. Альджанова “Ўқув портфолиоси – бўлажак ўқитувчиларда касбий компетентликни шакллантириш воситаси сифатида” Педагогик таълим журнали, 2012 йил 4-сон, 46-бет.
25. Т.Т.Шоймардонов, В.С.Хамидов, М.Файзиева. “Электрон педагогика ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойиҳалаш” модули бўйича ўқув–услубий мажмуа. Тошкент 2015.
26. Nayot faoliyatu havfsizligi. A. Qudratov, T. G'aniyev va b., Toshkent, Aloqachi, 2005 y.
27. www.ziyonet.uz
28. www.portfolio.bimm.uz